

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IXTIYOR ERMATOV

ONA TILI

Test-sinov mashqlari majmuasi

Akademik litsey va o‘rta umumta’lim maktablarining ona tili  
o‘qituvchilari hamda o‘quvchilari uchun qo‘llanma

Toshkent – 2021

**UO‘K: 811.512.133 (038). 81’242**

**KBK: 81.2 O‘zb**

**E 21**

Mazkur qo‘llanmada akademik litsey hamda o‘rta umumta’lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zbek tilining fonetik, lug‘aviy va grammatik qurilishi bo‘yicha olgan bilimlarini sinab ko‘rish va mustahkamlash maqsad etilgan. Qo‘llanmaning mazmun-mundarijasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorida belgilangan malaka talablari asosidagi dasturlardan foydalanildi hamda o‘quv dasturlar va darsliklardagi o‘zgarishlar asos qilib olingan.

Kitob akademik litsey va o‘rta umumta’lim maktablarining ona tili o‘qituvchilari hamda o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi  
Guliston davlat universiteti O‘quv-metodik kengashining 2021-yil  
11-maydagi majlisida (7-bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.*

**M a s’ u l m u h a r r i r:**

filologiya fanlari doktori, professor Yo.Odilov

**T a q r i z c h i l a r:**

filologiya fanlari nomzodi, dotsent J.Abdullayev

filologiya fanlari nomzodi, dotsent I.Pardayeva

**ISBN 978-9943-14-803-1**

© Ermatov Ixtiyor, 2021

© «TURON-IQBOL», 2021

## SO‘ZBOSHI

Har bir davlat va mamlakatning rivoji, taraqqiyoti u yerdagi maktab-maorif, ta’lim-tarbiya ishining saviyasiga qarab belgilanadi, degan fikr shunchaki xulosa emas, balki tom ma’nodagi chin haqiqatning o‘zginasidir. Qaysi mamlakatda ta’lim-tarbiya sohasida zamonaviylik bilan qorishgan ilg‘orlik bo‘lar ekan, u yerdan jahonga mashhur donishmandlarning chiqishi shubhasiz.

Test-sinov mashqlari – ta’limning samarali zamonaviy usullaridan biri. Bu usul yordamida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi, xotiralari mustahkamlanadi. Test-sinov mashqlari, boshqa fanlarda bo‘lganidek, ona tilining ham nazariy materiallarini me’yoriy o‘zlashtirishda qo‘l keladi.

Hukmingizga havola etilayotgan ushbu kitobda akademik litsey hamda o‘rta umumta’lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zbek tilining fonetik, lug‘aviy va grammatik qurilishi bo‘yicha olgan bilimlarini sinab ko‘rish va mustahkamlash maqsad etilgan.

Kitobning mazmun-mundarijasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarorida belgilangan malaka talablari asos qilib olindi.

Qo‘llanmani tayyorlashda akademik litsey uchun yaratilgan darsliklari va o‘rta umumta’lim maktablarining 5-11-sinf Ona tili darsliklarining nazariy va amaliy materiallariga tayanildi.

Mazkur kitob akademik litsey hamda o‘rta umumta’lim maktablari ona tili (o‘zbek tili) darslarida ustama ta’limiy material sifatida shu fan o‘qituvchilariga amaliy yordam berishi shubhasiz. Shunisi ham borki, bu

qo'llanma tajriba sifatida yaratilgan dastlabki ish. Shu bois uni ayrim juz'iy kamchiliklardan xoli deb bo'lmaydi. Ishonamizki, qo'llanma kasbiga fidoyi o'qituvchilarimizning ish faoliyatida munosib bahosini oladi.

Qo'llanmada hammasi bo'lib 500 ta test-sinov topshiriqlari berilgan. Har bir topshiriq to'rttadan javobni o'z ichiga olgan. Ulardan birigina talab etilgan masalaga to'g'ri javob hisoblanadi. O'quvchilar bilimining qat'iyligini sinash maqsadida test-sinov topshiriqlarining har biri to'rt variantda o'zgartiriladi. Shunday qilinsa, sinov mashqlarining umumiy miqdori 2000 taga ko'payadi. Bu tadbir o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq, albatta.

Qo'llanma yuzasidan bildiriladigan foydali istak va takliflar minnatdorlik bilan qabul qilinadi. Ular qo'llanmaning navbatdagi nashrida, albatta, hisobga olinadi.

## **I. KIRISH.**

**1. Qaysi qatorda tilshunoslik fanining bo'limlari to'g'ri va to'liq berilgan?**

- A. Fonetika, leksikologiya, grafika, orfoepiya, stilistika.
- B. Fonetika, stilistika, morfemika, sintaksis, frazeologiya.
- C. Uslubiyat (stilistika), morfologiya, orfografiya, so'z yasalishi.
- D. Fonetika, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya, orfografiya, orfoepiya, morfemika, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya.

**2. Qaysi qatorda fonetikaning nimani o'rganishi to'g'ri aytilgan?**

- A. Tilning tuzilish tomonini.
- B. Yangi so'zlarning paydo bo'lishini.
- C. Boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni.
- D. Tilning nutq tovushlari tizimini va ular bilan bog'liq lisoniy xususiyatlarni.

**3. Qaysi qatorda leksikologiyaning nimani o'rganishi to'g'ri aytilgan?**

- A. Tilning so'z va shakl yasovchi qo'shimchalari tizimini.
- B. Tilning yangi so'zlar hosil bo'lish yo'llarini.
- C. Tildagi so'z turkumlari tizimini.
- D. Tilning lug'at tarkibini.

**4. Qaysi qatorda frazeologiyaning nimani o'rganishi to'g'ri aytilgan?**

- A. Tilning soʻz birikmalari tizimini.
- B. Tilning gap qurilishi bilan bogʻliq masalalarini.
- C. Tilning koʻchma maʼnoli turgʻun iboralarini.
- D. Tilda yangi soʻzlar hosil boʻlish qonun-qoidalarini.

**5. Qaysi qatorda leksikografiyaning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Tilning lugʻat tarkibidagi eskirgan soʻzlarni.
- B. Tilning yangidan paydo boʻlgan soʻzlari tizimini.
- C. Tilning qoʻshma va juft soʻzlari tizimini.
- D. Lugʻatlar va lugʻatchilik bilan bogʻliq masalalarni.

**6. Qaysi qatorda orfografiyaning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Tilning soʻz birikmalari tizimini.
- B. Soʻz va iboralarning toʻgʻri yozilish qoida va prinsiplarini.
- C. Tilning juft va takroriy soʻzlar tizimini.
- D. Tildagi qoʻshimchalar tizimini.

**7. Qaysi qatorda orfoepiyaning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Tildagi soʻz va shakl yasovchi qoʻshimchalarning yozilishini.
- B. Tildagi qoʻshma va juft soʻzlarning yozilishini.
- C. Tildagi yasama soʻzlar tizimini.
- D. Soʻzlarning toʻgʻri talaffuz etilish qonun-qoidalarini.

**8. Qaysi qatorda morfemikaning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Soʻz tarkibining maʼnosiz unsurlarini.
- B. Soʻz tarkibining maʼnoli eng kichik unsurlarini.
- C. Tildagi sodda va qoʻshma soʻzlar tizimini.
- D. Tildagi yasama soʻzlar tizimini.

**9. Qaysi qatorda soʻz yasallishining nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Soʻzlarning toʻgʻri yozilish qonun-qoidalarini.
- B. Soʻzlarning toʻgʻri talaffuz etilish qonun-qoidalarini.
- C. Soʻzlarning maʼnosiga koʻra guruhlanishini.
- D. Tildagi yangi soʻzlar va ularni hosil qilish usullarini.

**10. Qaysi qatorda morfologiyaniing nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Tildagi koʻchma maʼnoli iboralar yasallishini.
- B. Tildagi soʻz va shakl yasovchi qoʻshimchalar tizimini.
- C. Soʻzlarning grammatik shakllari va soʻz turkumlari tizimini.
- D. Sodda, qoʻshma, juft va takroriy soʻzlar tizimini.

**11. Qaysi qatorda sintaksisning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Tildagi soʻz va qoʻshimchalar tizimini.
- B. Tildagi soʻz va iboralarning yozilish qonun-qoidalarini.
- C. Tildagi mustaqil va yordamchi soʻzlar tizimini.
- D. Soʻz birikmalari hamda gaplar tizimi va ularning hosil boʻlish qonun-qoidalarini.

**12. Qaysi qatorda stilistikaning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Nutq uslublari va soʻzlarni nutqda maqsadga muvofiq ishlatish yoʻllarini.
- B. Tildagi yangi soʻzlardan foydalanish yoʻllarini.
- C. Boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlardan foydalanish yoʻllarini.
- D. Iboralar va ulardan foydalanish yoʻllarini.

**13. Qaysi qatorda punktuatsiyaning nimani oʻrganishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Soʻzlarning bosh va kichik shaklda yozilishini.

- B. Yasama soʻzlarning yozilish qonun-qoidalarini.
- C. Juft va takror soʻzlarning yozilish qonun-qoidalarini.
- D. Tinish belgilari tizimi va har bir tinish belgisining yozilish oʻrinlarini.



## **II. FONETIKA. GRAFIKA. ORFOGRAFIYA.**

**1. Qaysi qatorda nutq tovushlarining nima ekanligi to‘g‘ri aytilgan?**

- A. So‘zlarning havo zarbiga ko‘ra taqsimlanishi.
- B. Bir nafas bilan aytiladigan qism.
- C. Nutqning so‘z va qo‘shimchalar hosil qiluvchi eng kichik birligi.
- D. Nutqning faqat ovozdan iborat kichik birligi.

**2. Qaysi qatordagi so‘zlarda bir unli tovush mavjud?**

- A. Mashhur, jasur, iliq.
- B. Tiniq, chiziq, baliq.
- C. Zarb, shart, qarz.
- D. Biqin, shaboda, peshona.

**3. Qaysi qatordagi so‘zlarda ikki unli tovush mavjud?**

- A. Daraxt, bozor, dala.
- B. Mardona, mashina, madaniyat.
- C. Zabardast, tashviqot, manzara.
- D. Mard, do‘st, g‘irt.

**4. Qaysi qatordagi so‘zlarda jarangli undoshlar mavjud emas?**

- A. Shift, taft, xattot.
- B. Dard, mard, ziyod.
- C. Barg, Ra‘no, lozim.
- D. Mosh, lo‘biyo, randa.

**5. Qaysi qatordagi soʻzlarda jarangli undosh tovushlar mavjud?**

- A. Tish, qish, osh.
- B. Tosh, soch, sust.
- C. Hoʻl, hur, zabt.
- D. Xashak, toʻshak, pichoq.

**6. Qaysi qatordagi soʻzlar jarangli undosh tovush bilan boshlangan?**

- A. Shom, sadoqat, kino.
- B. Daraxt, zolim, rohat.
- C. Samovar, shom, qush.
- D. Shahar, qir, sahar.

**7. Qaysi qatordagi soʻzlar jarangli undosh tovush bilan tugagan?**

- A. Baxt, daraxt, tish.
- B. Dard, mard, qalb.
- C. Taxt, karaxt, tashvish.
- D. Kaklik, taklif, tinchlik.

**8. Qaysi soʻzlar oʻrtasida jarangli undosh tovush mavjud?**

- A. Tarozi, tovoq, lavlagi.
- B. Taxt, noʻxat, nihoya.
- C. Baxt, taxta, shahar.
- D. Qishki, qitiq, qatiq.

**9. Qaysi qatordagi soʻzlar oʻrtasida jarangli undosh tovush mavjud emas?**

- A. Oqshom, axtar, Ahad.
- B. Yirik, iliq, imtihon.
- C. Yirtiq, yelim, egmoq.
- D. Yordam, yolvormoq, yomgʻir.

**10. Qaysi qatordagi soʻzlar jarangsiz undosh tovushlar bilan boshlangan?**

- A. Qimiz, kumush, shira.
- B. Gavhar, gilam, din.
- C. Gʻurur, zarda, jiyda.
- D. Rohat, zirak, rayhon.

**11. Qaysi qatordagi soʻzlar jarangsiz undosh tovush bilan boshlanmagan?**

- A. Baliq, zarba, dakki.
- B. Taxt, sahar, shahar.
- C. Silliq, tiniq, shinam.
- D. Sut, qatiq, pishloq.

**12. Qaysi qatordagi soʻzlar jarangsiz undosh tovushlar bilan tugagan?**

- A. Zarur, dard, gard.
- B. Quadrat, saodat, sharaf.
- C. Iymon, zamon, barg.
- D. Terim, qizil, bozor.

**13. Qaysi qatordagi soʻzlar jarangsiz undoshlar bilan tugamagan?**

- A. Tasdiq, taraf, qishloq.
- B. Guruh, siyoh, tashvish.
- C. Tiniq, siniq, sharaf.
- D. Shahar, tadbir, qadr.

**14. Qaysi qatordagi soʻzlar oʻrtasida jarangsiz undosh tovush mavjud?**

- A. Taroq, buloq, darak.
- B. Bilak, bardam, baraka.
- C. Baxmal, baqa, bitta.

D. Tog'a, qirmizi, durdona.

**15. Qaysi qatordagi so'zlar faqat ochiq bo'g'indan iborat?**

A. Mashhur, mas'ul, maxsus.

B. Minbar, maktab, sur'at.

C. Ma'no, sa'va, onasi.

D. Dard, barg, g'isht.

**16. Qaysi qatordagi so'zlar ochiq va yopiq bo'g'inlardan iborat?**

A. Tarbiya, lavozim, sharoit.

B. Ota, oila, baho.

C. Quдрat, shuhrat, in'om.

D. Yulduz, ma'no, makon.

**17. Qaysi qatordagi so'zlar bo'g'inga ajralmaydi?**

A. Malohat, piyoda, tandir.

B. G'alaba, ajoyib, shaharlik.

C. G'isht, zarb, go'sht.

D. Mashina, mahalla, chayla.

**18. Qaysi qatordagi so'zlarning birinchi bo'g'ini ochiq bo'g'in bo'ladi?**

A. Yurak, yelim, yovuz, yorim.

B. Yordam, yoshlik, yolqin.

C. Yulduz, yetti, yulg'un.

D. Yelkan, yordam, yurmoq.

**19. Qaysi qatordagi so'zlarning ikkinchi bo'g'ini ochiq bo'g'in bo'ladi?**

A. Boshliq, toshloq, tomir.

B. Tolib, bozor, tomon.

C. Yelka, orqa, boshqa, tomosha.

D. Telpak, taroq, qoshiq.

**20. Qaysi qatordagi soʻzlarning birinchi boʻgʻini yopiq boʻgʻin emas?**

- A. Parcha, tirqish, sirli.
- B. Birga, tirkak, sharpa.
- C. Baland, tarafdor, shahar.
- D. Qiyshiq, qarmoq, barra.

**21. Birinchi boʻgʻini yopiq boʻgʻinli soʻzlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Terimchi, taraqqiyot, taʼlimot.
- B. Tashabbus, tamaki, qulaylik.
- C. Tarvuz, tashviqot, targʻibot.
- D. Tanaffus, talabchan, targʻibot.

**22. Ikkinchi boʻgʻini ochiq boʻgʻinli soʻzlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Markaziy, matbuot, birgalik.
- B. Baquvvat, murakkab, tashabbus.
- C. Musharraf, muqaddas, mashhur.
- D. Terimchi, tilakdosh, tandir.

**23. Oxirgi boʻgʻini yopiq boʻgʻinli soʻzlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Markaziy, maʼmuriy, maʼlumot.
- B. Tantana, gʻalaba, lola.
- C. Bahona, mardona, dunyo.
- D. Gulladi, terla, bobosi.

**24. Qaysi qatordagi soʻzlarga urgʻu qoʻyilmaydi?**

- A. Brigada, sozanda, toshqin.
- B. Daftar, qalam, shahar.
- C. Gʻisht, goʻsht, mard.
- D. Uquv, oʻrdak, oʻrik.

**25. Qaysi qatordagi soʻzlarda urgʻu oxirgi boʻgʻinga koʻchgan?**

- A. Jurnal, gazeta, qalam.
- B. Kitoblar, daftarlar, tadbiri.
- C. Uy, tashqari, mehmon.
- D. Kitob, daftar, tadbir.

**26. Qaysi qatordagi soʻzlarda urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmagan?**

- A. Laboratoriya, masʼuliyat, direktor.
- B. Mashʼal, masala, miqdor.
- C. Zamondosh, bolalar, terimchi.
- D. Piyola, choynak, qumgʻon.

**27. Qaysi qatordagi soʻzlarda urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushmaydi?**

- A. Yaxshigina, daftar-chi?, oʻqisang-chi.
- B. Oʻquvchi, gulchi, temirchi.
- C. Qishloq, stulning, shartnoma.
- D. Qiziqchi, sotuvchi, yigʻuvchi.

**28. Qaysi qatordagi soʻzlarda «a» harfi oʻrnida «o» yozilib, xatoga yoʻl qoʻyilgan?**

- A. Aziz, arzon, aʼlo.
- B. Anor, anjir, arzir.
- C. Movsum, jovob, ovlod.
- D. Adolat, atamoq, adashmoq.

**29. Qaysi qatordagi soʻzlarda «oʻ» harfi oʻrnida «u» yozilib, xatoga yoʻl qoʻyilgan?**

- A. Tugun, bugun, burchak.
- B. Burgut, bulut, buyuk.
- C. Qurgʻoshin, quzgʻamoq, quzichoq.
- D. Qoʻriq, qoʻshni, qoʻrgʻon.

**30. Qaysi qatordagi soʻzlar xato yozilgan?**

- A. Suyanmoq, suyuk, suyak.
- B. Yolgʻon, ayoz, piyoz.
- C. Yoqqol, namayonda, hayojon.
- D. Diyonat, xiyonat, sayyoh.

**31. Qaysi qatordagi soʻzlar xato yozilgan?**

- A. Yarim, yaxshi, yashirin.
- B. Yagʻoch, yangʻoq, yavlashmoq.
- C. Yamoq, yalinmoq, yashamoq.
- D. Yantoq, yalmogʻiz, yakkash.

**32. Qaysi qatordagi soʻzlar xato yozilgan?**

- A. Yulduz, yuqumli, yulgʻich.
- B. Yurak, yutuq, yuqori.
- C. Yunalish, yulbars, yuldosh.
- D. Yuksak, suyuq, tuyuq.

**33. Qaysi qatordagi soʻzlar xato yozilgan?**

- A. Terak, teri, berk.
- B. Erkaev, ylim, ylkan.
- C. Yetmish, yetti, bellashmoq.
- D. Tegirmon, teshik, temir.

**34. Qaysi qatordagi soʻzlar xato yozilgan?**

- A. Yolqov, yalgʻon, yoqin.
- B. Berk, betma-bet, terim.
- C. Oʻn yetti, yelim, yetmoq.
- D. Yelkan, ulkan, yedirmoq.

**35. Qaysi qatordagi soʻzlarda «j» harfi portlovchi «d» va «j» tovushlarini ifodalagan?**

- A. Mujda, sajda.

- B. Jilov, jo‘yak, jumla.
- C. Jurnal, jo‘yak.
- D. Jirafa, gijda.

**36. Qaysi qatorda «j» harfi sirg‘aluvchi bir «j» tovushini ifodalagan?**

- A. Jiydaning guli nihoyatda xushbo‘y bo‘ladi.
- B. Ibn Sino jahon tibbiyotining otasidir.
- C. Yangi kelgan o‘quvchining familiyasi jurnalga yozildi.
- D. Ukamga Jo‘shqin ismi qo‘yildi.

**37. Qaysi qatorda «f» tovushli so‘z noto‘g‘ri yozilgan?**

- A. Furqat, fabrika, fikr.
- B. Parishta, parzand, palokat.
- C. Farog‘at, favqulodda, fason.
- D. Fuzuliy, tasodif, fundament.

**38. «F» tovushli so‘zlar qaysi qatorda to‘g‘ri yozilgan?**

- A. Paqat, tasodip, tashrip.
- B. Pirdavsiy, shiponer, qulp.
- C. Shafaq, shafqatsiz, farq.
- D. Harp, tarapdor, tapsilot.

**39. Qaysi qatorda «h» tovushli so‘z noto‘g‘ri yozilgan?**

- A. Axloq, xabar, xat.
- B. Xashak, xirmon, xizmat.
- C. Xadicha, baxt, baxil.
- D. Baxor, xol-axvol, axamiyat.

**40. Qaysi qatordagi so‘zlardan biri xato yozilgan?**

- A. Onalar, shahar, maorif.
- B. Markaz, himoya, lirika.
- C. Singl, ong, rang.



D. Qizil, oq, ko‘kish.

**41. Qaysi qatordagi so‘zlardan biri xato yozilgan?**

- A. Baho, ildiz, sahro.
- B. Mushuk, qo‘zi, lozim.
- C. Yulduz, yalg‘iz, yelim.
- D. Mard, sariq, qizil.

**42. Qaysi qatorda ochiq bo‘g‘inli so‘zlar berilgan?**

- A. Limon, mandarin, gilos.
- B. Sayramoq, ishlamoq, tinglamoq.
- C. Tarelka, pilik, tegirmon.
- D. Piyoda, alla, mana.

**43. Qaysi qatordagi so‘zlardan biri xato yozilgan?**

- A. Bellashmoq, terlamoq, tekislik.
- B. Ylpinmoq, yechinmoq, yetmish.
- C. Terimchilar, sheriklik, semirmoq.
- D. Ketmon, kemirmoq, dengizchilar.

**44. Qaysi qatorda faqat yopiq bo‘g‘inli so‘zlar berilgan?**

- A. Toshkent, maktab, nashvish.
- B. Yelkan, yemirmoq, yetishmok.
- C. Berk, terak, beshik.
- D. Yetti, yelpinmoq, yetakchi.

**45. Qaysi qatorda bo‘g‘inlaridan biri bir tovushga teng so‘zlar berilgan?**

- A. Maktabdosh, sirdosh, majlis.
- B. Ota, uka, mudofaa.
- C. Mashina, tilxat, manzil.
- D. Mashhur, manzur, paxta.

**46. Qaysi qatorda bo‘g‘inlaridan ikkitasi bir tovushga teng so‘zlar berilgan?**

- A. Musiqa, dilkash, markaz.
- B. Sehr, shingil, diqqat.
- C. Oila, Saodat, mukofot.
- D. Uylar, tanaffus, sharaflı.

**47. Qaysi qatorda ikki bo‘g‘inli so‘zlar berilgan?**

- A. Mashhur, maktabdosh, sinf.
- B. Yelim, yomonlik, yugurmoq.
- C. Dardchil, mehnatkash, bardam.
- D. Mardlik, sinfdosh, hamkasb.

**48. Qaysi qatorda bo‘g‘inlari uch tovushdan iborat so‘zlar berilgan?**

- A. Oila, ozoda, bola.
- B. Opa, uka, ona.
- C. Yordam, yetmish, yordam.
- D. Ishla, imla, mehr.

**49. Qaysi qatorda bo‘g‘inlaridan biri to‘rt harfli so‘zlar berilgan?**

- A. Daraxt, baxtli, dolzarb.
- B. Markaziy, bilim, darmon.
- C. Chidam, mash‘al, qalam.
- D. Daftar, chizg‘ich, sumka.

**50. Qaysi qatorda uch bo‘g‘inli so‘zlar berilgan?**

- A. Matbuot, yugurmoq, gazeta.
- B. Bilim, terim, tunda.
- C. Tandir, dala, daraxt.
- D. Yelim, yovuz. jurnal.

**51. Qaysi qatorda bo'g'inlaridan biri to'rt harfdan iborat so'zlar berilgan?**

- A. Singil, yengil, sinfdosh.
- B. Dilbar, deraza, tashqari.
- C. Bolalar, terak, bilak.
- D. Shahar, viloyat, o'lka.

**52. Yana qaysi qatorda bo'g'inlaridan biri to'rt harfdan iborat so'zlar berilgan?**

- A. Madaniyat, ma'rifat, maktab.
- B. Maorif, tibbiyot, tashqari.
- C. Shkafda, tengdosh, mardlik.
- D. Sharafli, ilg'or, zafar.

**53. Qaysi qatorda bo'g'inlaridan biri ikki tovushli so'zlar berilgan?**

- A. Tirgak, bilmoq, to'qmoq.
- B. Alla, dala, ma'no.
- C. Bardam, tarvuz, taqdir.
- D. Tashvish, tandir, mardlik.

**54. Qaysi qatordagi so'zlarning bo'g'inlaridan biri uch harfga teng?**

- A. Ma'no, ma'yus, sa'va.
- B. Oila, ozoda, oqila.
- C. Mehr, mard, mana.
- D. Tesha, buyuk, okean.

### III. LEKSIKOLOGIYA

**1. Qaysi qatordagi soʻzlar narsa-predmet maʼnosini bildirgan?**

- A. Yumshoq, iliq, sovuq.
- B. Tesha, daftar, tosh.
- C. Yaxshilik, silliq, tun.
- D. Qumloq, adir, choʻziq.

**2. Qaysi qatordagi soʻzlar narsa-predmet maʼnosini bildirmaydi?**

- A. Qalam, soat, kitob.
- B. Yassi, qir, togʻlik.
- C. Temir, piyola, rubob.
- D. Stol, stul, parta.

**3. Qaysi qatorda bir maʼnoli soʻzlar berilgan?**

- A. Suv, ogʻiz, lab.
- B. Ogʻiz, qoʻl, oyoq.
- C. Uchburchak, qoʻshimcha, asos.
- D. Ochilmoq, ishlamoq, gullamoq.

**4. Qaysi qatorda bir maʼnoli soʻzlar berilmagan?**

- A. Okean, koʻl, qir.
- B. Asr, Napoleon, tarixchi.
- C. Oshiq, suyuq, uchmoq.
- D. Amerika, Yevropa, grammatika.

**5. Qaysi qatordagi gapda bir maʼnoli soʻz mavjud?**

- A. Ochiq tabiat qo‘ynida miriqasan kishi.
- B. Alisher doskaga suv formulasini yozdi.
- C. Bolalar maktab bog‘ida ishladilar.
- D. Keng adirda qo‘y-qo‘zilar o‘tlamoqda.

**6. Qaysi qatorda bir ma’noli so‘z ishlatilmagan?**

- A. Biz astronomiya faniga qiziqamiz.
- B. Saodat «bolalik» so‘zini bo‘g‘inlarga ajratdi.
- C. Mahalla qo‘y-qo‘zilari yaylovdan qaytdi.
- D. «Ishchi» so‘zida «-ish» asosdir.

**7. Qaysi gapda «oltin» so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatigan?**

- A. Dadam ko‘p yillar oltin zavodida ishlagan.
- B. Bu suvlar tarkibida oltin bor ekan.
- C. Yoshlikning oltin davr ekanligini keksayganda tushunarkan odam.
- D. Oltin metallarning eng nodiri va qimmatlisidir.

**8. Qaysi qatordagi gapda ko‘chma ma’noli so‘z mavjud?**

- A. Oyim kumush idishda ovqatlanadilar.
- B. Kumush koniga sayohatga bordik.
- C. Akamning ikki tishiga kumush qoplangan.
- D. Bolalar kumush qishni orziqib kutishadi.

**9. Qaysi qatordagi gapda «etak» so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilgan?**

- A. Paltomning etagini bir oz qisqartirdim.
- B. Ukam ko‘ylagining etagiga lenta tiktirdi.
- C. Singlim kiyimining yelkasidan etagigacha jiqqa ho‘l edi.
- D. Sinfimizning etagiga yasagan narsalarimiz terib qo‘yildi.

**10. Qaysi qatordagi gapda «ochilmoq» so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilgan?**

- A. Deraza katta ochilib, salqin havo kirdi.
- B. Darvoza eshigi ochilib, mehmonning mashinasi ichkari kirdi.
- C. Mashinaning orqa eshigi ochilib, ikki qiz tushib keldi.
- D. Dilbar mehmonlar davrasida ancha ochilib o'tirdi.

**11. Qaysi qatordagi gapda «ogiz» so'zi ko'chma ma'noda ishlatilgan?**

- A. Ertakka berilib ketgan bolalarning og'zi dam ochilib, dam yopilardi.
- B. Tumov tekkan shekilli, kichik ukamning og'zidan suv oqib qoldi.
- C. Singlim choynakning og'zini ochib, bir siqim choy soldi.
- D. Buvim og'zini ochib esnaganda, bor-yo'g'i ikki tishi ko'rindi.

**12. Qaysi qatordagi gapda «bosh» so'zi ko'chma ma'noda kelgan?**

- A. Qorong'uda men boshimni daraxtga urib oldim.
- B. Hamshira ukamning boshidagi toshmalarga dori surtdi.
- C. Direktor she'r o'qigan qizchaning boshini siladi.
- D. Sherigim ko'chamiz boshida turgan ikki kishiga egilib salom berdi.

**13. Qaysi qatordagi gapda «lab» so'zi ko'chma ma'noda ishlatilgan?**

- A. Singlim labini bir-ikki yalab qo'ydi.
- B. Vrach lablarimizni ikki tomonga ochib, tishlarimizni ko'rdi.
- C. Ukam meni masxaralab labini burdi.
- D. Bolakay suvga qarmoq tashlagancha anhor labida mudrardi.

**14. Qaysi qatordagi gapda omonim so'z ishtirok etgan?**

- A. Biz shahar chetidagi mahallada yashaymiz.
- B. Oyim yaqinda olamdan o'tgan qarindoshimizning yettisiga ketdi.

- C. To‘rt kunki yomg‘ir tinmay yog‘adi.
- D. Qishda ariq suvlari muzlaydi.

**15. Qaysi qatordagi gapda omonim so‘z qatnashmagan?**

- A. Maktabimiz yangi binoga ko‘chdi.
- B. Chumchuq daraxt shoxiga qo‘ndi.
- C. Tun. Ko‘kda yulduzlar charaqlaydi.
- D. Oyim ukamning kiyimidagi changni tozaladi.

**16. Qaysi qatordagi gapda paronim so‘zlar ishtirok etgan?**

- A. Shahrimizning san‘at saroyida sanoatchilar kuni nishonlandi.
- B. Biz har doim yozni oromgohda o‘tkazamiz.
- C. Maktabimiz – tumanimizdagi eng yirik ilm maskanlaridan biri.
- D. Biz kanalda miriqib cho‘mildik.

**17. Qaysi qatorda paronimlarga oid so‘zlar berilgan?**

- A. Bosh, ko‘z, qosh.
- B. Lola, atirgul, rayhon.
- C. Shahar, teatr, klub.
- D. Asr, temir, asir.

**18. Qaysi qatorda paronim so‘zlar berilmagan?**

- A. Kitob, qalam, ruchka.
- B. Sudxo‘r, mashina, sutxo‘r.
- C. Ziyrak, ko‘ylak, zirak.
- D. Urush, bilak, urish.

**19. Qaysi qatorda paronimlarga to‘g‘ri sharh berilgan?**

- A. Tovush tarkibi bir xil so‘zlar.
- B. Tovush tuzilishi bir-biriga yaqin ohangdosh so‘zlar.
- C. Talaffuzi bir xil so‘zlar.
- D. Shakli har xil, ma‘nosi bir xil so‘zlar.

**20. Qaysi qatorda omonim soʻzlarga toʻgʻri sharh berilgan?**

- A. Tovush tarkibi, talaffuzi va yozilishi bir xil, maʼnosi har xil soʻzlar.
- B. Talaffuzi oʻxshash, maʼnosi har xil soʻzlar.
- C. Yozilishi bir xil, talaffuzi har xil soʻzlar.
- D. Har xil maʼnoli ohangdosh soʻzlar.

**21. Qaysi qatorda sinonim soʻzlar berilgan?**

- A. Hid, sariq, is.
- B. Bino, tong, suv.
- C. Zarba, bilim, dasht.
- D. Ishchi, muhandis, oʻquvchi.

**22. Qaysi qatorda sinonim soʻzlar mavjud emas?**

- A. Ish, qulf, yumush.
- B. Yuz, daftar, visol.
- C. Yugurmoq, ishlamoq, chopmoq.
- D. Tarozi, dala, bino.

**23. Qaysi qatorda sinonim soʻzlar qatori mavjud emas?**

- A. Kelishgan, suluv, zebo.
- B. Uzun, novcha, baland.
- C. Yarimta, butun, kichik.
- D. Bemor, kasal, xasta.

**24. Qaysi qatordagi gapda sinonim soʻz mavjud emas?**

- A. Aqlli, hushli kishilar hayotda hecham qiynalmaydi.
- B. Har kim bilimli, donishmand boʻlishni istaydi.
- C. Qizlarimiz suluv va goʻzallikda paridan qolishmaydi.
- D. Abdulla Qahhor Chexov singari mohir hikoyanavis boʻlgan.

**25. Qaysi qatorda zid maʼnoli (antonim) soʻzlar berilgan?**

- A. Uchdi, qoʻndi; keldi, ketdi.



- B. Yirik, ulkan, katta.
- C. Baxtli, omadli.
- D. Taxta, yog‘och, kaltak.

**26. Qaysi gapda boshqa tildan o‘zlashgan so‘z mavjud?**

- A. Uyimiz qishloqning o‘rtasida joylashgan.
- B. Men ertalab gimnastika bilan shug‘ullanaman.
- C. O‘rtog‘im bilan dala aylandik.
- D. Ikki qishloqni bir ko‘prik tutashtiradi.

**27. Qaysi qatordagi gapda o‘zlashgan so‘z mavjud emas?**

- A. Singlim paltosini shifonerga joyladi.
- B. Dadam ukamga yangi velosiped olib berdi.
- C. Shaharga sirk tomoshasiga bordik.
- D. Yoz kelgach, dala ishlari avjiga chiqadi.

**28. Ichki omil asosida paydo qilingan so‘zlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Oshqozon, dardchil, sayrgoh.
- B. Traktor, poezd, velosiped.
- C. Biznesmen, latifa, jamoat.
- D. Maorif, tibbiyot, sanoat.

**29. Qaysi qatordagi gapda ibora mavjud?**

- A. Bir sinfda yigirma to‘rt o‘quvchimiz.
- B. Sinfimizning o‘n besh o‘quvchisi qizlar.
- C. O‘qituvchimiz darsni jon kuydirib tushuntiradi.
- D. Salima sakkizinchi sinfda o‘qiydi.

**30. Qaysi qatordagi gapda ibora mavjud emas?**

- A. Akam shoshganidan jonini qaerga qo‘yishni bilmasdi.
- B. Darsga kechikmay deb, oyog‘imni qo‘lga olib yugurdim.
- C. Biz taniqli shoir Hayot Shodmon bilan uchrashuv o‘tkazdik.

D. Do‘stim bugun negadir to‘nini teskari kiygan ko‘rinadi.

**31. Qaysi gapda «umidsizlandi» so‘ziga ma’nodosh ibora mavjud?**

- A. Biz darsdan so‘ng sinf majlisi o‘tkazdik.
- B. Diloromning oyisi maktabimizda ishlaydi.
- C. Biz ekrani katta yangi televizor sotib oldik.
- D. Tolib boshliq huzuridan tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib chiqdi.

**32. Qaysi qatorda adabiy tilda ishlatilmaydigan so‘zlar berilgan?**

- A. Maktab, yugurmoq, ichkari.
- B. Millat, yashamoq, gilos.
- C. Shoti, toqi, pishak.
- D. Yarqiramoq, o‘quvchi, manzil.

**33. Qaysi qatorda boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar berilgan?**

- A. Pichoq, o‘roq, suv.
- B. Mehmon, ta’lim, xabar.
- C. Kelmoq, o‘qimoq, ishla.
- D. Buloq, sevinch, qarmoq.

**34. O‘zbek tilining o‘ziga xos so‘zlari qaysi qatorda berilgan?**

- A. Osmon, tandir, davra.
- B. Non, lab, peshona.
- C. Qirg‘oq, yaxshilik, tinchlik.
- D. Bozor, dasturxon, barg.

**35. Yana qaysi qatorda sof o‘zbekcha so‘zlar berilgan?**

- A. Shahar, mahalla, masjid.
- B. Mashina, parta, kreslo.
- C. Domla, ustoz, do‘st.
- D. Uy, qurilish, chiniqmoq.

#### **IV. MORFEMIKA. SO‘Z YASALISHI.**

**1. Morfemikada nimaning o‘rganilishi qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Tilning lug‘at tarkibi.
- B. So‘zlarning fonetik qurilishi.
- C. Boshqa tildan o‘zlashgan so‘zlar.
- D. So‘z tarkibining ma’noli qismlari.

**2. Qaysi qatorda asosning sharhi to‘g‘ri aytilgan?**

- A. So‘zning ikki to‘xtam oralig‘idagi qismlari.
- B. So‘zning morfemalarga ajralishi.
- C. So‘zning gapdagi vazifasi.
- D. So‘z tarkibining lug‘aviy ma’noga ega qismi.

**3. Qaysi qatorda qo‘shimchaga to‘g‘ri sharh berilgan?**

- A. So‘zni tashkil qilgan unli tovushlar.
- B. So‘z tarkibidagi undosh tovushlar.
- C. So‘zning ma’noli eng kichik qismi.
- D. So‘z tarkibining so‘z va shakl yasovchi unsurlari.

**4. Qaysi qatorda asosdosh so‘zlar berilgan?**

- A. Bilim, gulzor, qo‘shiqchi.
- B. Gulga, toqqa, dalalarga.
- C. Boshchi, boshliq, boshga.
- D. Qushlar, baliqchi, bolalar.

**5. Qaysi qatorda bir xil qo‘shimchali so‘zlar berilmagan?**

- A. Bolaning, kitobning, daftarning.
- B. Ishda, dalada, uyda.
- C. Suvchi, gulchi, pochtachi.
- D. Qushlar, o‘rtoqlik, o‘roqchi.

**6. Qaysi qatorda faqat asosdan iborat so‘zlar berilgan?**

- A. Choyxo‘r, paxtakor, latifachi.
- B. Choynak, shahar, libos.
- C. Qirlar, paxtazor, sholikor.
- D. Qalamdon, doskani, maktabdosh.

**7. Qaysi qatorda bir xil qo‘shimchali so‘zlar berilgan?**

- A. Dardman, dardchil, dardli.
- B. Ishchi, hamsinf, go‘zallik.
- C. Talabchan, ishchan, ko‘ylakchan.
- D. Sinfdan, sinfga, sinfdosh.

**8. Qaysi qatorda qo‘shimchalar asoslardan yangi so‘zlar yasagan?**

- A. Bolalar, tog‘ni, boshga.
- B. Uyni, toshga, ishda.
- C. A’lochi, ishchan, gullamoq.
- D. Sinfimiz, uying, maktabdan.

**9. Qaysi qatorda qo‘shimchalar yangi so‘z yasamagan?**

- A. Sinfdosh, kitobxon, o‘ylamoq.
- B. Suhbatdosh, suvdon, toshloq.
- C. Bolalik, mayinlik, tashlandiq.
- D. Yo‘llar, ishlarimiz, o‘qigan.

**10. Qaysi qatorda asosga qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan so‘zlar berilgan?**

- A. Maktab, oila, dalalar.

- B. Ma'lumotlar, kitobni, daftarga.
- C. O'rtog'im, stolning, uydan.
- D. Mehnatkash, talabalik, zamondosh.

**11. Qaysi qatorda asosga asos qo'shish bilan yasalgan so'zlar berilgan?**

- A. Tilshunos, tarixchi, o'lkashunos.
- B. Tinimsiz, o'tloq, baholash.
- C. Yerto'la, tomorqa, ko'richak.
- D. Tengdosh, qumloq, qamishzor.

**12. Qaysi qatordagi so'zlarda qo'shimcha qo'shish bilan asos tarkibida o'zgarish yuz bergan?**

- A. Yasha, sana, bo'yoq.
- B. Ichki, ishchi, boshliq.
- C. Bedazor, toshloq, qumloq.
- D. Bekorchi, lolazor, shaharlik.

**13. Yana qaysi qatordagi so'zlarda qo'shimcha qo'shish bilan asosda tovush o'zgarishi yuz bergan?**

- A. Tiniq, chiziq, to'liq.
- B. Tortma, boshlama, bosma.
- C. Sayroqi, o'ynoqi, quvnoq.
- D. Kaptarvoz, o'yinchi, dorvoz.

**14. Qaysi qatorda qo'shma so'zlarga misol berilgan?**

- A. Bozor-o'char, egri-bugri, to'la-to'kis.
- B. Kirim-chiqim, latta-lutta, ish-pish.
- C. Tomorqa, ishbilarmon, sotib olmoq.
- D. Kecha-kunduz, oldi-qochdi, tinib-tinchimas.

**15. Qaysi qatorda juft so'zlarga misol keltirilgan?**

- A. Ota-ona, o'g'il-qiz, qarindosh-urug'.

- B. Alang-salang, irim-sirim, chala-chulpa.
- C. Toma-toma, lash-lush, qimir-simir.
- D. Latta-putta, irim-jirim, quvdi-quvdi.

**16. Qaysi qatorda takroriy soʻzlarga misol berilgan?**

- A. Bosvoldi, shakarpalak, atirgul.
- B. Urdi-urdi, zoʻr-bazoʻr, eshikma-eshik.
- C. Oʻgʻil-qiz, ota-bobo, toshbaqa.
- D. Yertoʻla, tosh-tarozi, oq-qora.

**17. Qaysi qatorda qoʻshma soʻzlarga misol berilmagan?**

- A. Tilim-tilim, koʻz-qosh, latta-putta.
- B. Soʻz boshi, yeryongʻoq, ituzum.
- C. Buzoqboshi, achchiqmiya, qoʻy koʻz.
- D. Dutor boʻyin, boʻyimbogʻ, tomorqa.

**18. Qaysi qatorda juft soʻzlarga misol berilmagan?**

- A. Issiq-sovuq, ichak-chavoq, yetim-yesir.
- B. Kirdi-chiqdi, oldi-berdi, katta-kichik.
- C. Yosh-yalang, qishin-yozin, hovli-joy.
- D. Toʻda-toʻda, chang-chung, quvdi-quvdi.

**19. Qaysi qatorda yasama soʻzlarga misol berilmagan?**

- A. Bolalar, qishloqda, daftar.
- B. Talabchan, irodali, serunum.
- C. Baquvvat, ishchan, mehnatsevar.
- D. Dorboz, boshlamoq, suvsiramoq.

**20. Qaysi qatordagi soʻzlarda soʻz yasovchi qoʻshimcha asos oldidan qoʻshilgan?**

- A. Gulzor, chidam, bogʻbon.
- B. Sergʻayrat, befarq, nooʻrin.
- C. Chidamli, gulzor, boʻshliq.

D. Guldon, ishchi, tarozibon.

**21. Qaysi qatordagi soʻzlarda soʻz yasovchi qoʻshimcha asos ketidan qoʻshilgan?**

- A. Bogʻlam, terim, suvlik.
- B. Bezarar, sersuv, notinch.
- C. Serharakat, baquvvat, beshafqat.
- D. Befahm, serdaromad, barkamol.

**22. Yana qaysi qatordagi soʻzlarda soʻz yasovchi qoʻshimcha asos oldidan qoʻshilgan?**

- A. Barakali, boshlamoq, suvsira.
- B. Goʻzallik, ishqiboz, suvlik.
- C. Beshafqat, sersuv, barqaror.
- D. Toshloq, yaxshilik, birikmoq.

**23. Yana qaysi qatorda soʻz yasovchi qoʻshimcha asos ketidan qoʻshilgan?**

- A. Serchiqim, barvaqt, bekam.
- B. Yallachi, oʻychan, zararli.
- C. Befarq, serzavq, betashvish.
- D. Sershira, nooʻrin, beish.

## **V. MORFOLOGIYA**

### **I. Mustaqil soʻz turkumlari**

**1. Qaysi qatorda morfologiyaning nimaning bir boʻlimi ekanligi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Til ilmining bir boʻlimi.
- B. Leksikologiyaning boʻlimlaridan biri.
- C. Puktuatsiyaning boʻlimlaridan biri.
- D. Grammatikaning boʻlimlaridan biri.

**2. Qaysi qatorda soʻzlarning qanday turkumlarga ajralishi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Mustaqil soʻz turkumlari, undovlar.
- B. Yordamchi soʻz turkumlari, taqlid soʻzlar.
- C. Modal soʻzlar, undov soʻzlar.
- D. Mustaqil soʻz turkumlari, yordamchi soʻzlar, undov, modal soʻzlar, taqlid soʻzlar.

**3. Qanaqa? soʻrogʻiga javob boʻluvchi soʻzlar qatorini toping.**

- A. Temir, qoʻrgʻoshin, mis.
- B. Latta, koʻrpa, yostiq.
- C. Ishchi, sotuvchi, talaba.
- D. Shoʻx, qora, katta.

**4. Mustaqil soʻz turkumlari qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?**

- A. Ot, undov, taqlid soʻz, sifat.
- B. Ot, modal soʻzlar, son.



- C. Fe'l, ravish, olmosh, undov.
- D. Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish.

**5. Yordamchi soʻz turkumlariga nimalarning kirishi qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?**

- A. Undov, taqlid soʻz, ravish.
- B. Modal soʻz, yuklama, koʻmakchi.
- C. Bogʻlovchi, modal soʻz, taqlid soʻz.
- D. Bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama.

**6. Alohida soʻz turkumiga nimaning kirishi qaysi qatorda toʻgʻri berilgan?**

- A. Ravish.
- B. Modal soʻz.
- C. Taqlid soʻz.
- D. Undov.

**7. Qaysi qatorda yordamchi soʻzlarga misol keltirilgan?**

- A. Maktab, kitob, qalam.
- B. Qizil, oq, qora.
- C. Taxminan, chamasi, balki.
- D. Uchun, bilan, va.

**8. Qaysi qatorda lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan soʻzlar berilgan?**

- A. Axir, lekin, esa.
- B. Uylar, dalalar, tosh.
- C. Pushti, sariq, issiq.
- D. Bormoq, ishlamoq, aytmoq.

**9. Mustaqil maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Balki, goʻyo, ehtimol.

- B. Ammo, kabi, hatto.
- C. Misli, shubhasiz, toki.
- D. Soat, yumshoq, uxlamoq.

**10. Kim? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Temir, qo‘rg‘oshin, mis.
- B. Latta, ko‘rpa, yostiq.
- C. Ishchi, sotuvchi, talaba.
- D. Besh, yugurmoq, chidam.

**11. Nima? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlar qaysi qatorda berilgan?**

- A. Ijodkor, rassom, chevar.
- B. Qo‘y, echki, mushuk.
- C. Suvoqchi, cho‘pon, askar.
- D. Imom, muxandis, talabgor.

**12. Qaysi qatorda joy ma‘nosini bildirgan atoqli ot mavjud?**

- A. Aziza singlisini maktabga olib bordi.
- B. Kuchuklarimdan birining oti – Qo‘rqmas.
- C. Biz Sirdaryo viloyatiga qarashli Shirin shahrida yashaymiz.
- D. «G‘uncha»ning yangi sonida mening she‘rim bosilgan.

**13. Qaysi qatordagi gapda atoqli ot ishtirok etmagan?**

- A. Biz Navoiy nomidagi maktabda o‘qiymiz.
- B. Do‘stim har kuni Gulistonga qatnaydi.
- C. Mashinamiz «Istiqlol» bekatidan kimnidir oldi.
- D. Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

**14. Qaysi qatordagi gapda shaxs ma‘nosidagi turdosh ot mavjud emas?**

- A. Yigit bo‘lsang, mard bo‘l (m.).

- B. Bevafo yordan tayoq yaxshi (m.).
- C. Farzand hamma narsadan shirin.
- D. Totuv turmush uzoq umr demakdir (m.).

**15. Qaysi qatordagi gapda turdosh ot shaxs ma'nosini bildirgan?**

- A. Yomon otda yurgandan yayov yurgan yaxshi (m.).
- B. Qirq uy quda bo'lsa, qirq yil qirg'in bo'lmas (m.).
- C. Yomon arava yo'l buzadi (m.).
- D. Kiyimingni toza tutsang, sog'lom yurasan.

**16. Qaysi qatorda atoqli otga aylangan turdosh ot mavjud?**

- A. Uyda ota-onangga, ko'chada do'stlaringga suyan (m.).
- B. Oftob borida yo'lga tush (m.).
- C. Otang borida ishga tush (m.).
- D. Biz Po'latning tug'ilgan kuniga bordik.

**17. Qaysi qatordagi gapda atoqli otga aylanmagan turdosh ot mavjud?**

- A. Suv ichgan chashmangga tupurma (m.).
- B. Qumri va To'tilar bir mahallada yashar ekan.
- C. Sinfimizda Rayhonni hamma hurmat qiladi.
- D. Do'stlarimdan biri Qo'chqor bo'ladi.

**18. Qaysi qatordagi gapda bosh kelishigi shaklidagi ot mavjud?**

- A. Loydan holva yasab bo'lmas (m.).
- B. Yalqov qishda issiqni ko'zlaydi.
- C. Men har kuni issiq choy ichaman.
- D. Bekorchidan el bezor (m.).

**19. Qaysi qatordagi gapda bosh kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Ko‘p yashagan emas, ko‘p kezgan bilar (m.).
- B. Chanqoqqa bir tomchi suv ham madad (m.).
- C. Uyqu o‘rin tanlamas (m.).
- D. Sinalmagan qaymoqdan sinalgan qatiq yaxshi (m.).

**20. Qaysi qatordagi gapda qaratqich kelishigi shaklidagi ot mavjud?**

- A. Ilm-aqlning chirog‘i (m.).
- B. Betiga emas, bilimiga qara (m.).
- C. Ilm-u hikmat suvni ham yondiradi (m.).
- D. Davlat tugar, bilim tugamas (m.).

**21. Qaysi qatordagi gapda qaratqich kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Kemaga tushganning joni bir (m.).
- B. Gapning qisqasi, arqonning uzuni yaxshi (m.).
- C. Ahmoqning mohiri, do‘stlikning oxiri bo‘lmas (m.).
- D. Burgutning kuchi qanotida bo‘ladi (m.).

**22. Qaysi qatordagi gapda belgisiz qaratqich kelishigi shaklidagi ot mavjud?**

- A. Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l (m.).
- B. Kishining g‘ayrati orzusiga yarasha bo‘ladi (m.).
- C. Xalqning haqini yegan halqumidan ilinadi (m.).
- D. Aqlning o‘lchovi idrokdir (m.).

**23. Qaysi qatordagi gapda tushum kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Aqlli qish g‘amini yozda yeydi (m.).
- B. Suvning bir qatrasini ham yerga darmon (m.).
- C. Men har kuni shaharni bir aylanaman.
- D. Ishingni undir, ko‘nglingni to‘ldir (m.).

**24. Qaysi qatordagi gapda tushum kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Tirishganning to'kmog'idan qo'rq (m.).
- B. Bir tayoqni sindirib bo'ladi.
- C. Ish seni emas, ishni sen yeng (m.).
- D. Qushni qanoti, odamni mehnati boqadi (m.).

**25. Qaysi qatordagi gapda jo'nalish kelishigi shaklidagi ot mavjud?**

- A. Dasturxonga boqqan do'st bo'lmas (m.).
- B. Do'stini yomonlagandan qoch (m.).
- C. Ko'ngil ko'ngildan suv ichar (m.).
- D. Kiyimning yangisi, do'stning eskisi yaxshi (m.).

**26. Qaysi qatordagi gapda jo'nalish kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Terga botgan rohatga botar (m.).
- B. Bir tariqdan bo'tqa bo'lmas (m.).
- C. Yerga oshatsang, osh bitar (m.).
- D. Zar qadriga zargar yetar (m.).

**27. Qaysi qatordagi gapda tovush o'zgarishiga uchragan jo'nalish kelishigi shaklidagi ot mavjud?**

- A. Dehqon ishlab rizqqa yo'l ochar (m.).
- B. Yerga muhabbat – elga muhabbat (m.).
- C. Bir erga, bir yerga navbat (m.).
- D. Molga bersang soz yemish, seni boqar yoz-u qish (m.).

**28. Qaysi qatordagi gapda o'rin-payt kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Harakat, harakatda barakat (m.).
- B. Yomon arida bol bo'lmas (m.).
- C. Suvsiz yerda tol bitmas (m.).

D. Qish g'amini yoz ye (m.).

**29. Qaysi qatordagi gapda o'rin-payt kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Hunarsiz yo'lda sarson (m.).
- B. Ko'za kunda emas, kunida sinadi (m.).
- C. Husn to'yda, aql kunda kerak (m.).
- D. O'rinsiz g'azab - o'zingga azob (m.).

**30. Qaysi qatordagi gapda chiqish kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Osmondan tosh yog'sa ham, yerga foyda (m.).
- B. G'aramlardan xirmon bo'lar (m.).
- C. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas (m.).
- D. Otning yaxshisi poygada chopar (m.).

**31. Yana qaysi qatordagi gapda chiqish kelishigi shaklidagi ot mavjud emas?**

- A. Ko'ngil ko'ngildan suv ichar (m.).
- B. To'dadan ajragan to'rga tushar (m.).
- C. Ko'pdan quyon qochib qutulmas (m.).
- D. Ko'kka emas, ko'pga boq (m.).

**32. Qaysi qatordagi gapda otning 1-shaxs egalik shakli mavjud emas?**

- A. Bog'imizda mevali daraxtlarning barchasidan bor.
- B. Mening katta akam Toshkentda o'qiydi.
- C. Men mehnatim bilan baxt topganlardan biri.
- D. Yaxshi ish o'zini o'zi maqtaydi (m.).

**33. Qaysi qatordagi gapda otning 2-shaxs shakli yo'q?**

- A. Vaqting ketdi – naqding ketdi (m.).
- B. Ish do'sting – jon do'sting (m.).

C. Ishingni o‘ndir, ko‘nglingni to‘ldir (m.).

D. Suv mo‘l – hosil mo‘l (m.).

**34. Qaysi qatordagi gapda otning 3-shaxs shakli yo‘q?**

A. Suv – yerning qoni, dehqonning joni (m.).

B. Har yerning o‘z tuprog‘i, o‘z sharoiti bor (m.).

C. Bir tomchi suv yer uchun bir qadoq oltindan afzal (m.).

D. Suvning onasi – buloq, so‘zning onasi – quloq (m.).

**35. Qaysi qatordagi gapda otning 2-shaxs egalik shakli mavjud?**

A. Arig‘ingni novday, xirmoningni tog‘day qil (m.).

B. Kuz g‘amini yoz ye (m.).

C. Qovun yesang, sahar ye (m.).

D. Suv qatrasi – dur qatrasi (m.).

**36. Qaysi qatordagi gapda -lar qo‘shimchali ot grammatik ko‘plik ma’nosini bildirgan?**

A. Mahallamiz do‘konida salqin ichimliklar ham sotiladi.

B. Bugun oyimlar mehmonlikka borarkanlar.

C. Men Dilshodlar bilan dars tayyorladim.

D. Sinfimizga yangi partalar keltirildi.

**37. Qaysi qatordagi gapda -lar qo‘shimchali ot grammatik ko‘plik ma’nosini bildirmagan?**

A. Kutganing tez kelavermagach, yuraklaring siqilar ekan.

B. Ko‘chamizdan har xil mashinalar ko‘p o‘tadi.

C. Kutubxonamizda yangi badiiy kitoblar ko‘p.

D. O‘qituvchi vazifa daftarlarimizni yig‘ishtirib oldi.

**38. Qaysi qatordagi gapda otning kichraytish shakli ishtirok etgan?**

A. Biz o‘rtoqlarimiz bilan har xil uychalar yasadik.

- B. Bobom uyga kelgan qizaloqning peshonasidan o'pib qo'ydilar.
- C. Dilrabo qo'shiqni mohir qo'shiqchilarday kuyladi.
- D. Sichqonlarmi tonggacha Quvnab qoldi yangicha (Y.Ochilov).

**39. Qaysi qatordagi gapda otning chegara ma'nosini bildiruvchi shakli mavjud?**

- A. Lobar oyijonini juda sevadi.
- B. Ukam kuchukchasini erkaladi.
- C. Qarshidan Toshkentgacha mashinada besh soat yuriladi.
- D. Bobom ukamni «bo'talog'im» deb suyadilar.

**40. Qaysi qatordagi gapda sodda ot ishtirok etgan?**

- A. Gina-adovatdan tilingni bog'la (m.).
- B. Arpa-bug'doy bir kunningga yaraydi.
- C. Sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi.
- D. Tuyaqush parrandalarning eng yirigidir.

**41. Qaysi qatordagi gapda sodda ot ishtirok etmagan?**

- A. Hayt degan tuyaga madad (m.).
- B. Suvsiz hayot bo'lmas.
- C. Mehnatsiz rohat bo'lmas.
- D. Ota-onangni boshingga ko'tar.

**42. Qaysi qatordagi gapda qo'shma ot ishtirok etmagan?**

- A. Gultojixo'roz bog'imizdaga eng sara gullardan.
- B. Bozorlarda Mirzacho'l qovunlari sotilmoqda.
- C. Boyovut tumanidagi katta dalalardan biri Sultonhovuzdir.
- D. Chin do'st tug'ishgandan ortiq bo'ladi.

**43. Qaysi qatordagi gapda takroriy ot mavjud?**

- A. Mahallamizning bir guruh o'g'il-qizlari Gulistonda ishlaydi.
- B. Shahrisabz O'zbekistonning go'zal shaharlaridan biri.
- C. Maktab qurilishiga mashina-mashina g'isht keltirib tushirildi.



D. Men tomorqamizdagi gullardan guldasta yasadim.

**44. Qaysi qatordagi gapda tarkibli ot mavjud?**

A. O‘zbekiston milliy universiteti mamlakatimizdagi eng yirik oliy o‘quv yurtidir.

B. Oilamiz katta, oyim har kuni tandir-tandir non yopadilar.

C. Qo‘y-qo‘zilar ma’rashib, podadan qaytdi.

D. Biz daraxtda qizilishtonni ko‘rdik.

**45. Qaysi qatordagi gapda qisqartma ot ishtirok etgan?**

A. Surxondaryoda yangi temir yo‘l qurilishi boshlandi.

B. Biz Guliston davlat universiteti talabalari bilan uchrashib turamiz.

C. Akam bu yil O‘zMUga o‘qishga kirmoqchi.

D. Viloyat xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish instituti yangi binoga ko‘chirildi.

**46. Qaysi qatordagi gapda sifatning oddiy daraja shakli mavjud?**

A. Ma’rifat bog‘imizdagi eng yaxshi gullardan guldasta tayyorladi.

B. Buvim bizlarga o‘ta samimiy va juda mehribondirlar.

C. Noshud safarga ketishda, mard safardan qaytishda maqtanadi (m.).

D. Sizning kiyimingiz menikiga qaraganda ozodaroq ko‘rinadi.

**47. Qaysi qatordagi gapda sifatning qiyosiy daraja shakli mavjud?**

A. Har yozda anhorning tiniq suvida miriqib cho‘milamiz.

B. Barno ranglarning qizilrog‘ini yoqtiradi.

C. Mardlik keng maydonda bilinadi.

D. Dildora ko‘m-ko‘k osmonga tikilgancha o‘ylanib qoldi.

**48. Qaysi katordagi gapda sifatning orttirma daraja shakli mavjud?**

- A. Shoiri eng yaqin do'stlariga yangi kitobidan berdi.
- B. Bugungi ishni ertaga qo'yma (m.).
- C. Oyim siniq idishlarni axlatxonaga chiqarib tashladi.
- D. Dadam doim ko'k choy iste'mol qiladilar.

**49. Qaysi qatordagi gapda sifatning qo'shimcha qo'shish bilan yasalgan ozaytirma shakli mavjud?**

- A. Buyuklarning buyukligi so'z bilandir.
- B. Eski va yaroqsiz buyumlar tashqariga chiqarib qo'yildi.
- C. Karim musobaqada eng kuchli kurashchi bo'lib chiqdi.
- D. Lola oqish, sarg'ish gullardan bir quchoq terdi.

**50. Qaysi qatordagi gapda sifatning asos qo'shish bilan hosil qilingan ozaytirma shakli ishtirok etgan?**

- A. Sinfimizga sal eski sumka ko'targan o'quvchi kelib qo'shildi.
- B. Savri choynakdagi sovuq choydan ancha simirdi.
- C. Mashina tekis va ravon yo'ldan uchib borardi.
- D. Hovlimizga baland darvoza o'rnatdik.

**51. Qaysi qatordagi gapda sifatning qo'shimcha qo'shish bilan hosil qilingan kuchaytirma shakli mavjud?**

- A. To'yga borsang, to'yib, yomonligingni qo'yib bor (m.)
- B. Akam kichik singlimga chiroyligina qo'g'irchoq olib keldi.
- C. Chuqur va mukammal bilim donolikdan nishonadir.
- D. Yangi mashina har bir xonadonga zeb berarkan.

**52. Qaysi qatordagi gapda sifatning asos qo'shish bilan hosil qilingan kuchaytirma shakli mavjud?**

- A. Yaxshi husnni yomon xulq buzadi (m.).
- B. Bahorda dala, qirlar go'zal libosga burkanadi.
- C. Nodir jiqqa ho'l kiyimda uyga kirib keldi.

D. Bog‘da qizil, pushti, sariq gullar ochilgan.

**53. Qaysi qatordagi gapda asliy sifat ishtirok etgan?**

- A. Buvim har kecha bizga qiziq ertaklardan aytib beradi.
- B. Zarifa go‘shtdor qo‘llarini musht qilib, bolalarga do‘q urdi.
- C. Sinfimizda kuchli yigitlar ko‘p.
- D. Qo‘shnimiz ikki qavatli uyda yashashadi.

**54. Qaysi qatordagi gapda nisbiy sifat ishtirok etgan?**

- A. Biz shaharga yaqin qishloqda yashaymiz.
- B. Oyim kecha o‘ziga yangi palto sotib oldi.
- C. Ukam yumshoq nonni yaxshi ko‘radi.
- D. Dadam xona to‘ridagi divanga yonboshladilar.

**55. Qaysi qatordagi gapda ham asliy, ham nisbiy sifat mavjud?**

- A. Ukam katta yoshli odamlar bilan suhbat qurishni yaxshi ko‘radi.
- B. Biz yaqinda maktabning yangi binosiga ko‘chib o‘tdik.
- C. Intizomli bolalar hech vaqt yomon o‘qimaydi.
- D. Ko‘chada begona bir odam kimningdir uyini qidirardi.

**56. Qaysi qatordagi gapda yasama sifat ishtirok etgan?**

- A. O‘qituvchimiz hamma vaqt ozoda kiyimda yuradi.
- B. Biz mehmondorchilikda shirin taomlar iste’mol qildik.
- C. Qish faslida issiq kiyimlarda yurish kerak.
- D. Singilcham shirador mevalarni xush ko‘radi.

**57. Qaysi qatordagi gapda yasama sifat mavjud emas?**

- A. Sinfimizga yangi o‘quvchi kelib qo‘shildi.
- B. Sevimli shoirimiz Hayot Shodmon maktabimiz mehmoni bo‘ldi.
- C. Dadam serhosil yerlarda dehqonchilik qiladi.
- D. Qo‘shnimiz yaqinda oq rangli mashina sotib oldi.

**58. Qaysi qatordagi gap tarkibida juft sifat ishtirok etgan?**

- A. Mashinamiz qalin tuproqli yo‘ldan sekinlab o‘tdi.
- B. Oyim ukamning katta-kichik kiyimlarini yuvishga ajratdi.
- C. Dadam eski uylar o‘rniga zamonaviy uy qurmoqchilar.
- D. Biz yirtiq-sirtiq kitoblarimizni makulaturaga topshirdik.

**59. Qaysi qatordagi gapda takroriy sifat mavjud?**

- A. Odamzod issiq-sovuq kunlarning hammasiga chidaydi.
- B. Uzuq-yuluq gaplar odamning g‘ashiga tegarkan.
- C. Baland-past uylar o‘rnida ko‘p qavatli uylar qurildi.
- D. Uyimizga uzoq-yaqin qarindoshlarimiz to‘plandi.

**60. Qaysi qatordagi gapda otlashgan sifat mavjud?**

- A. Kiyimning yangisi hammaga ham ma’qul bo‘ladi.
- B. Biz tor ko‘chalardan katta ko‘chaga chiqib oldik.
- C. Bolalar yozda sovuq suvda cho‘milishni yaxshi ko‘radilar.
- D. Basharang xunuk bo‘lsa, oynadan o‘pkalama (m.).

**61. Qaysi qatordagi gapda otlashmagan sifat mavjud?**

- A. Akam mashinaning buzug‘ini ustaga olib ketdi.
- B. Kiyimning yangisi, do‘stning eskisi yaxshi (m.).
- C. Gapning to‘g‘risini aytgan hech kimga ma’qul bo‘lmaydi.
- D. Bolalar katta daraxt soyasida dam oldilar.

**62. Qaysi qatordagi gapda son turkumiga oid so‘z mavjud?**

- A. Ilm – aqlning chirog‘i (m.).
- B. Davlat tugar, bilim tugamas (m.).
- C. Birni birov, ko‘pni mehnat beradi (m.).
- D. Yiqilgan kurashga to‘ymas (m.).

**63. Qaysi qatordagi gapda son turkumiga oid so‘z mavjud emas?**

- A. Yettining biri Xizr deydilar (m.).
- B. Yigit kishiga yetmish ikki hunar ham oz (m.).

- C. Ko‘maklashgan ish bitmay qolmas (m.).
- D. Ko‘pchilik bir burdadan bersa, to‘ydiradi (m.).

**64. Qaysi qatordagi gapda son otga bog‘lanmagan?**

- A. Ikkinchi ukam shahardagi uchinchi maktabda o‘qiydi.
- B. U tanlab sumkaning to‘rtinchisini oldi.
- C. Maktabimizda mingtacha o‘quvchi bor.
- D. Ikkita o‘rtog‘im musobaqada g‘olib chiqdi.

**65. Qaysi qatordagi gapda sanoq son ishtirok etgan?**

- A. Ko‘chamiz boshidan to‘rtinchi uyda biz yashaymiz.
- B. Mening akam ikkinchi marta olimpiada g‘olibi bo‘ldi.
- C. Yaxshi o‘qiganligi uchun Rustamga o‘nta kitob sovg‘a qilindi.
- D. Bu yil biz beshinchidan oltinchi sinfga ko‘chamiz.

**66. Qaysi qatordagi gapda son numerativ so‘z bilan kelgan?**

- A. Ikki o‘quvchimiz tuman tashakkurnomasini oldi.
- B. Vazifa yuqori saviyada bajarilgani uchun barchamiz besh baho oldik.
- C. Ukamning ikkita qo‘l telefonii bor.
- D. Maktabimizdan o‘n nafar o‘quvchi markazga jo‘natildi.

**67. Qaysi qatordagi gapda jamlovchi son ishtirok etgan?**

- A. Men tanimaydigan ikki odam uyimizga keldi.
- B. Men, Ra‘no va Sharifa uchchalamiz kutubxonada dars qildik.
- C. Dadamning uchta o‘rtog‘i til fani bo‘yicha olim.
- D. Qishlog‘imizda ikkita maktab, uchta magazin bor.

**68. Qaysi qatordagi gapda otga ko‘chgan son mavjud?**

- A. Men har doim birinchi partada o‘tiranman.
- B. Sinfimizda yigirma ikki o‘quvchi ta‘lim oladi.
- C. Suhroblar yaqinda buvisining qirqini o‘tkazishdi.
- D. Menda hammasi bo‘lib yigirma dona daftar bor ekan.

**69. Qaysi qatordagi gapda ot vazifasidagi tartib son mavjud?**

- A. Birni yenggan mingni ham yengadi (m.).
- B. Akamning ikkinchisi ham bu yil universitet talabasi bo‘ldi.
- C. Oilamizda beshinchi ukam maktab yoshida emas.
- D. Xalqimizda yettiga sig‘inish urfga aylangan.

**70. Qaysi qatordagi gapda ot vazifasida kelgan sanoq son mavjud?**

- A. O‘qituvchimiz hammamizga yettitadan daftar berdi.
- B. Hovlimizda ikki tup sada daraxti bor.
- C. Rohat o‘qituvchining «to‘rt»iga rozi bo‘lmadi.
- D. Tanlovda sinfimiz birinchi o‘rinni oldi.

**71. Qaysi qatordagi gapda sanoq son ishtirok etmagan?**

- A. Qo‘shnimizning hovlisida yap-yangi bitta mashina turibdi.
- B. Ukam yaqindan beri ikki velosipedni ishdan chiqardi.
- C. O‘rtog‘im mendan o‘n so‘m pul oldi.
- D. Birga kelgan odamlardan ikkinchisi menga tanishday ko‘rindi.

**72. Qaysi qatordagi gapda murakkab son mavjud?**

- A. Darvozamiz oldiga bir mashina kelib to‘xtadi.
- B. Dildora shu yilning o‘n beshinchi aprelida rosa o‘n ikkiga to‘ladi.
- C. Dadam ikki million besh yuz ming so‘m maosh oladilar.
- D. Biz har oyning yigirma beshida sinf majlisi o‘tkazamiz.

**73. Qaysi qatordagi gapda kishilik olmoshi ishtirok etgan?**

- A. Bolalar yasagan o‘yinchoqlar bizga ma’qul bo‘ldi.
- B. O‘sha kundan boshlab uyimizda bayram.
- C. Derazadan kimdir qaraganday bo‘ldi.
- D. Kichik ukam o‘jar, hech kimga quloq solmaydi.

**74. Qaysi qatordagi gapda kelishik bilan turlangan kishilik olmoshi mavjud?**

- A. Bugun hammamiz maktab tajriba uchastkasida yig'ilamiz.
- B. Ukam mendan tushunmagan narsalarini so'rab oladi.
- C. O'rtog'im o'sha kuni sayohatga jo'nab ketdi.
- D. Shahrimizda barchaga manzur bo'ladigan joylar ko'p.

**75. Qaysi qatordagi gapda kelishik qo'shimchasini olmagan kishilik olmoshi mavjud?**

- A. O'qituvchimiz bizga yangi mavzuni tushuntirdi.
- B. Maktab direktori meni huzuriga chaqirtirdi.
- C. Manzura a'lochi qiz. Unga havas qilamiz.
- D. Men u bilan bir umrga do'stlashganman.

**76. Qaysi qatordagi gapda o'zlik olmoshi mavjud?**

- A. Ikki-uch she'r bitganim uchun, hamma meni shoir deyishadi.
- B. Tashqarida meni kimdir kutib turardi.
- C. Sening do'stlaring menikidan ko'p ekan.
- D. Dadam ishiga o'z mashinasida boradi.

**77. Qaysi qatordagi gapda o'zlik olmoshi boshqa olmoshdan keyin kelgan?**

- A. Bu rasmlarni ukam o'zi chizgan.
- B. Shu gaplarning bari sening o'zingdan chiqqan-ku?
- C. Tadbirga Zilolaning o'zi qatnashdi.
- D. Rustam o'zidan-o'zi gap boshladi.

**78. Qaysi qatordagi gapda ko'rsatish olmoshi mavjud?**

- A. Dadam shu ishidan ancha mamnun edi.
- B. Oyimning qaysi vazifada ishlashi faqat dadamga ma'lum.
- C. Direktorimiz talabchan odam, ishda hech kimni ayamaydi.
- D. Bobomning qachon tug'ilgani yodimdan ko'tarilgan.

**79. Qaysi qatordagi gapda ko‘rsatish olmoshi mavjud emas?**

- A. Siz aytgan o‘sha kitob hech qaerdan topilmadi.
- B. Hisobot majlisida qilingan shu ishlar haqida gapirildi.
- C. Ana, mana deb, bu yil ham o‘tdi-ketdi.
- D. Majlisda qachonlardir unutilgan masala yana qo‘zg‘aldi.

**80. Qaysi qatordagi gapda ot shakliga o‘tgan ko‘rsatish olmoshi mavjud?**

- A. Demokratiyaning shunisi yaxshiki, hech kim hech kimga tobe bo‘lmaydi.
- B. Manzura meni kelishilgan o‘sha manzilda kutib oldi.
- C. Bunday razillikka men sira ham yo‘l qo‘ymayman.
- D. Ro‘paradagi o‘sha hovli bizga qarashli bo‘ladi.

**81. Qaysi qatordagi gapda so‘roq olmoshi ishtirok etgan?**

- A. Men senga hamma gapni tushuntirdim shekilli.
- B. Risolat qaysi uyga kirishini bilmay, o‘ylanib turardi.
- C. Dinora o‘qigan she’r hammaga ma’qul bo‘ldi.
- D. Aqlsiz odam o‘zini maqtaydi.

**82. Qaysi qatordagi gapda so‘roq olmoshi ishtirok etmagan?**

- A. Uyimizning shundoq yonida katta anhor bor.
- B. Men uni qaerdadir ko‘rganga o‘xshayman.
- C. Ravshanga Komilaning nimasidir yoqib qolgan ko‘rinadi.
- D. Dala hovlimizga qanday yetib borganimizni bilmay qoldik.

**83. Qaysi qatordagi gapda so‘roq olmoshi otga xos qo‘shimchalarni olgan?**

- A. U o‘g‘lining qaysi sinfda o‘qishini bilmas ekan.
- B. Mumtoz shoirlarning qachon tug‘ilgani yodimdan ko‘tarilgan.
- C. Jurnal tahririyatining qaerdaligini hech kim aytolmadi.
- D. Navoiy ko‘chasiga qanday o‘tilishini ayta olasizmi?



**84. Qaysi qatordagi gapda bo‘lishsizlik olmoshi mavjud?**

- A. Har kimniki o‘ziga oy ko‘rinar ko‘ziga (m.).
- B. Har kim o‘zgacha yo‘sinda mehnat qiladi.
- C. Sen menga o‘shanda go‘yo quyosh bo‘lib ko‘rinding.
- D. Sizga havasim keladi: hech narsga parvo qilmaysiz.

**85. Qaysi qatordagi gapda ot o‘rnida qo‘llangan bo‘lishsizlik olmoshi mavjud?**

- A. Oyim hech qachon bizni koyimagan.
- B. Uning hech narsasini ayamaydigan odati bor.
- C. Hech qaysi muvaffaqiyatga mehnatsimz erishilmaydi.
- D. Siz so‘ragan narsani hech qayerdan topmadim.

**86. Qaysi qatordagi gapda sifat o‘rnida qo‘llangan bo‘lishsizlik olmoshi mavjud?**

- A. Men hech qaysi ishni chala-chulpa bajarishga o‘rganmaganman.
- B. Akam shaharda hech kim bilan uchrashmabdi.
- C. Do‘stim hech qachon qabih ishlarga qo‘l urmagan.
- D. Bu kitobning narxi hech qancha, lekin mazmuni bir olam.

**87. Qaysi qatordagi gapda bo‘lishsizlik oloshi mavjud emas?**

- A. Ukamni hech bir maslahat yo‘lga sololmadi.
- B. Do‘stim shunday saxiyki, u hech narsasini mendan ayamaydi.
- C. Bundayin farovon hayot hech qaysi davrda bo‘lmagan.
- D. O‘qituvchimiz har birimizga alohida-alohida vazifa topshirdi.

**88. Qaysi qatordagi gapda belgilash olmoshi ishtirok etgan?**

- A. Kim sevinsa, sevindim men ham.
- B. Sen ham oshiq, men ham oshiq.
- C. Har kim yurtini o‘zgacha obod qilarkan.
- D. Qahringga ham, zahringga ham chidadim o‘zim.

**89. Qaysi qatordagi gapda belgilash olmoshi ishtirok etmagan?**

- A. Mezbon bizni alohida xonaga boshlab kirdi.
- B. Har kim mehnatiga yarasha obro‘ topadi.
- C. O‘qituvchimiz har birimizni nomma-nom chaqirdi.
- D. Aqlli odam barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi.

**90. Qaysi qatordagi gapda son o‘rnida qo‘llangan belgilash olmoshi mavjud?**

- A. Har kim o‘z rejasi bilan ishlaydi.
- B. Qanchalik urinmaylik, Azizaga teng kelolmadik.
- C. Yosh bola har narsaga teginaveradi.
- D. U har bir qadamida to‘siqlarga duch kelaverdi.

**91. Qaysi qatordagi gapda gumon olmoshi mavjud?**

- A. Singilcham har bir narsaga bilib-bilmay aralashaveradi.
- B. Kichik ukam hech narsadan hayiqmaydi.
- C. Durдона tanaffusda allakimga qo‘ng‘iroq qildi.
- D. Biz bu xonadonda ijaraga yashaymiz.

**92. Qaysi qatordagi gapda gumon olmoshi mavjud emas?**

- A. Tushimda kimdir meni otga mindirdi.
- B. Ko‘chada oyim allakim bilan quyuq so‘rashdi.
- C. Har bir ishga puxta o‘ylab kirishmoq zarur.
- D. Men yoshligimda kimdandir juda hayiqardim.

**93. Qaysi qatordagi gapda sifat o‘rnida kelgan gumon olmoshi mavjud?**

- A. Maqolada romandagi qaysidir qahramon tanqid ostiga olingan.
- B. Bir begona kishi sinfimizdan kimnidir qidirganday bo‘ldi.
- C. Odamlar qachonlardir yerto‘lalarda yashaganlar.
- D. Sharif nimanidir ko‘lga uloqtirdi.

**94. Qaysi qatordagi gapda payt manosidagi gumon olmoshi mavjud?**

- A. Mahallamizda hech kimning mashinasi yo‘q.
- B. Zumrad yarim tunda kimgadir qo‘ng‘iroq qildi.
- C. Oyim dadamga nimanidir aytmoqchi bo‘ldi-yu, aytolmadi.
- D. O‘qituvchimiz qachonlardir bo‘lib o‘tgan voqeani hikoya qildilar.

**95. Fe‘l ishtirok etmagan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. So‘zni o‘lchab, kulgini misqollab sot (m.).
- B. Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi (m.).
- C. Nodon bilan sirdosh bo‘lma (m.).
- D. Dushmanning katta-kichigi bo‘lmaydi (m.).

**96. Oxirgi so‘zi fe‘l bo‘lgan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Sinalmagan do‘st – chaqilmagan yong‘oq (m.)
- B. Kiyimning yangisi yaxshi (m.).
- C. Do‘stning eskisi yaxshi (m.).
- D. Do‘stini yomonlagandan qoch (m.).

**97. Oxirgi so‘zi fe‘l bo‘lmagan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Har kimni do‘stim dema (m.).
- B. Aql bo‘y bilan o‘lchanmas (m.).
- C. Ustozning ham ustozlari bor (m.).
- D. O‘qimagan odam har qadamda oqsaydi.

**98. Qaysi qatordagi gapda o‘timli fe‘l mavjud?**

- A. Elga qo‘shilsang, el bo‘lasan (m.).
- B. Eldan ajralsang, yer bo‘lasan (m.).
- C. Bulbul chamanini, odam vatanini sevadi (m.).
- D. Elga qo‘shilgan oroyish topadi (m.).

**99. Qaysi qatordagi gapda o‘timsiz fe‘l mavjud?**

- A. Zarur bo‘lmasa, qilichni qinidan olma (m.).
- B. Ota-onani hurmat qilganga farzandidan qaytadi (m.).

- C. Odamni po'stin emas, ish qizdiradi (m.).  
D. Hayot har kimga har xil boqadi.

**100. Qaysi qatordagi gapda bo'lishsiz fe'l mavjud?**

- A. Ariqni suv bezaydi (m.).  
B. Odamni so'z bezaydi (m.).  
C. Aytilgan so'zni qaytarib bo'lmas (m.).  
D. Gap egasini topadi (m.).

**101. Bo'lishsiz fe'l mavjud bo'lmagan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Foydali so'zdan qaytma (m.).  
B. Tilni bilsang, dilni bilasan (m.).  
C. Aqlli so'zdan adashmas (m.).  
D. Til yarasi tuzalmaydi (m.).

**102. Qaysi qatordagi gapda fe'lning bosh nisbat shakli mavjud?**

- A. Bolalar qishda chanada uchib maza qiladilar.  
B. Kutubxonamizda she'rxonlik kechasi o'tkazildi.  
C. Ariqni ko'plashib, loyqadadan tozalashdi.  
D. Dadamni ishxonadan qaergadir jo'natishmoqchi.

**103. Qaysi qatordagi gapda fe'lning o'zlik nisbat shakli mavjud?**

- A. Yo'l notekisligidan mashinamiz u yon-bu yonga surilgandek bo'ldi.  
B. Dadamning kiyimlari cho'tkalanib, shifonerga qo'yildi.  
C. Terimchilar chaman-chaman paxtalarni zavq bilan terishdi.  
D. O'qituvchimiz doskadagi misolni daftarlarimizga ko'chirtirdi.

**104. Qaysi qatordagi gapda fe'lning majhul nisbat shakli mavjud?**

- A. Qurilayotgan uyimiz devori ustiga yana bir qator g'isht terildi.
- B. Dadam mehmonni ichkariga kiritdi.
- C. Ertaga sinfimiz o'quvchilari sayohatga jo'nashishaadi.
- D. O'qituvchimiz har bir mavzuni namunali tushuntiradi.

**105. Qaysi qatordagi gapda fe'lining majhul nisbat shakli mavjud emas?**

- A. Chelaklar suvga to'ldirildi va hasharchilarga yetkazildi.
- B. Oftobda quritilgan kiyimlarga dazmol bosildi.
- C. Dalalarda paxtalar oppoq bo'lib ochilgan.
- D. To'y oldidan akam xizmat joyidan chaqirtirildi.

**106. Qaysi qatordagi gapda fe'lining birgalik nisbat shakli mavjud?**

- A. Belgilangan joyga hamma bir vaqtda kelishdi.
- B. Ertaga klubdagi tadbirga boriladigan bo'ldi.
- C. Ukam bayramona kiyindi.
- D. Mezbon pishirilgan taomlarni dasturxonga keltirib qo'ydi.

**107. Qaysi qatordagi gapda fe'lining birgalik nisbat shakli mavjud emas?**

- A. Vaqti kelgach, dala ishiga hamma birday kirishishadi.
- B. G'oliblarning barchasi bir xil mukofot olishdi.
- C. Oyimning tug'ilgan kunlari kafeda o'tkazildi.
- D. Jamilaning bu qilig'iga bolalar kulib yuborishdi.

**108. Qaysi qatordagi gapda fe'lining orttirma nisbat shakli mavjud?**

- A. Tirishgan tog'dan oshibdi (m.).
- B. Bugungi ishni ertaga qoldirma (m.).
- C. Ko'ngilga kelgan ish bitmay qolmas (m.).
- D. Halol mehnat qadr topadi (m.).

**109. Qaysi qatordagi gapda fe'lining orttirma nisbatning ikki qo'shimchasi bir so'z tarkibida ketma-ket kelgan?**

- A. Oyimga aytib, ukamni xolamnikiga jo'nattirdik.
- B. Oyim magazindan olgan narsalarini ko'rsatdi.
- C. Sinfimizga chiroyli kiyingan qiz kelib qo'shildi.
- D. Zulfiya opamning qizchasi qo'g'irchoqdek kiyinadi.

**110. Qaysi qatordagi gapda fe'lining aniqlik maylidagi shakli mavjud?**

- A. El-yurtni ota-onaday aziz ko'r (m.).
- B. El ishiga erinma (m.).
- C. Yaxshi o'g'il yurt tuzadi (m.).
- D. Qo'rqqandan hovliqqan yomon (m.).

**111. Qaysi qatordagi gapda fe'lining aniqlik mayli shakli mavjud emas?**

- A. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar (m.).
- B. Mevasiz daraxt egilmas (m.).
- C. Qolgan ishga qor yog'ar (m.).
- D. Kuz g'amini yoz ye (m.).

**112. Qaysi qatordagi gapda fe'lining buyruq mayli shakli mavjud?**

- A. Tekin narsaning minnati ko'p bo'ladi (m.).
- B. Ish seni yengmasin, sen ishni yeng (m.).
- C. Suvsiz hayot bo'lmas.
- D. Hayt degan tuyaga madad (m.).

**113. Qaysi qatordagi gapda fe'lining buyruq mayli shakli mavjud emas?**

- A. Halol mehnat qadrsiz qolmas (m.).
- B. Olim bo'lsang, takror qil (m.).
- C. Gap bilguncha ish bil (m.).

D. El ishiga erinma (m.).

**114. Qaysi qatorda fe'lining o'tgan zamon shakli ishtirok etgan?**

- A. Tashqarida yomgir shovullab yog'ayotir.
- B. Ukam bu yil bog g'chaga boradi.
- C. O'rtog'im universitetda o'qimoqchi.
- D. Yaqinda oyimning qirq yoshlik yubileyini o'tkazdik.

**115. Qaysi qatordagi gapda fe'lining o'tgan zamon shakli mavjud emas?**

- A. Bolalar, sayohatga chiqar ekanmiz.
- B. Mushugim yo'qolib qoldi.
- C. Sichqonlar kulib qoldi (Y.Ochilov).
- D. Men uy vazifasini bajarib bo'ldim.

**116. Qaysi qatordagi gapda fe'lining kelasi zamon gumon shakli ishtirok etgan?**

- A. Kecha biz futbol musobaqasiga qatnashdik.
- B. Yig'ilishda qilingan barcha ishlar aytib o'tildi.
- C. Davlat tugar, ammo bilim tugamas (m.).
- D. Ko'pchilikning bir burdasi to'ydiradi (m.).

**117. Qaysi qatordagi gapda fe'lining kelasi zamon gumon shakli mavjud emas?**

- A. Qush uyasida ko'rganini qilar (m.).
- B. Ko'ngil ko'ngildan suv ichar (m.).
- C. Kichik arava katta arava orqasidan yurar (m.).
- D. Oltin zanglamaydi, bilim tugamaydi (m.).

**118. Qaysi qatordagi gapda fe'lining harakat nomi shakli mavjud?**

- A. El boshiga tushgani – er boshiga tushgani (m.).

- B. Yovdan qo‘rqqan – yovga do‘st (m.).
- C. Elga xizmat qilish – oliy himmat (m.).
- D. Mard maydonda bilinadi (m.).

**119. Qaysi qatordagi gapda fe’lning harakat nomi shakli otga ko‘chgan?**

- A. O‘n sakkiza kirganlar saylovda qatnashadi.
- B. Ko‘p o‘qish ko‘p bilish demakdir.
- C. Qasam ichish bilan gunohdan soqit bo‘lolmaysan.
- D. O‘quvni uquvdan farqlash kerak.

**120. Qaysi qatordagi gapda fe’lning sifatdash shakli ishtirok etgan?**

- A. Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar (m.).
- B. Nolish bilan ish bitmaydi.
- C. Qatorda nori borning ori bor (m.).
- D. Xolam kula-kula o‘rnidan turdi.

**121. Qaysi qatordagi gapda fe’lning sifatdash shakli mavjud emas?**

- A. Suv keltirgan elda aziz (m.).
- B. Terga botgan rohatga ham botadi (m.).
- C. Mehnatdan kelgan boylik turmushni etar chiroylik (m.).
- D. Oyim kelgach, men maktabga jo‘nadim.

**122. Qaysi qatordagi gapda fe’lning ravishdash shakli mavjud?**

- A. Odamlar so‘rab-so‘rab Makkani topgan (m.).
- B. Aybni yashirmoq aqllilar ishi emas.
- C. Odamni kuchi emas, aqli boqadi (m.).
- D. Muttahamning aldoviga uchma.

**123. Qaysi qatordagi gapda fe’lning ravishdash shakli mavjud emas?**



- A. Bevafoni urib haydama.
- B. Bevafoni kulib hayda.
- C. Qushni qanoti boqadi.
- D. Buvim o'tgan ishlarni kula-kula eslaydi.

**124. Ko'makchi fe'l mavjud gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Yotoqxona bo'lguncha ijarada yashab turdik.
- B. Bu kitoblarni menga akam berib yuboribdi.
- C. Bir ozdan keyin mehmon tashqariga chiqib keldi.
- D. Buvim birdaniga ertak boshlab yubordilar.

**125. Qaysi qatordagi gapda ko'makchi fe'l mavjud emas?**

- A. Hammamiz sinfga kirib bo'ldik.
- B. Tashqarida nimadir sharaqlab qoldi.
- C. Mehmon hammamizga yaqin tanish bo'lib chiqdi.
- D. El-yurt ota-ona kabi aziz ekan.

**126. Qaysi qatordagi gapda to'liqsiz fe'l mavjud?**

- A. O'qimagan kishilar hayotda ko'p qiynalar ekan.
- B. Dushmanning katta-kichigi bo'lmaydi (m.).
- C. Do'sting bilan sirdosh bo'l.
- D. Botirdan dev ham qo'rqarkan.

**127. Qaysi qatordagi gapda to'liqsiz fe'l mavjud emas?**

- A. Enajon tikuvchi bo'lmoqchi emish.
- B. Bugun maktabda majlis bo'lar ekan.
- C. Ertaga uyimizga mehmon kelarkan.
- D. Kimdir eshikni sekin tiqillatganday bo'ldi.

**128. Qaysi qatordagi gapda yasama fe'l ishtirok etgan?**

- A. Oyim maktabda ishlaydilar.
- B. Biz kechgacha o'qiymiz.
- C. Singlim bog'chaga boradi.

D. Mehnat darsida o‘yinchoqlar yasaymiz.

**129. Yasama fe‘l ishtirok etmagan gap qaysi qatorda berilgan?**

A. O‘qituvchimiz mavzuni qolgan joyidan boshladi.

B. Ular nima to‘g‘ridadir ancha gaplashdi.

C. Dadam ancha yoshligida uylangan ekan.

D. Biz anhorda har kuni cho‘milamiz.

**130. Qo‘shimcha qo‘shish bilan yasalgan fe‘l qaysi qatordagi gapda berilgan?**

A. Ishlamagan erdan tuxum berar tovuq yaxshi (m.).

B. Loydan holva yasab bo‘lmaydi (m.).

C. Qatiq to‘kilsa, yuqi qolar.

D. Ayron to‘kilsa, hech narsa qolmaydi.

**131. Asosga asos qo‘shib yasalgan fe‘l qaysi qatordagi gapda berilgan?**

A. Ko‘p o‘qigan, albatta, olim bo‘ladi.

B. Ko‘pni ko‘rgan ko‘pni biladi.

C. Tuya minib, uzoqni ko‘zla.

D. Kalta kesilgan temirni cho‘zib bo‘lmaydi.

**132. Juft fe‘l ishtirok etmagan gap qaysi qatorda berilgan?**

A. Bobom ko‘chadan entika-entika kirib keldi.

B. Opam yangi xonadonga ko‘nikkuncha, oyim tez-tez borib-kelib turdi.

C. Qudalarning bordi-keldisi avjiga chiqdi.

D. Mustaqillik tufayli hamma yayrab-yashnab qoldi.

**133. Ravishlarning so‘z turkumlaridan qaysisiga o‘xshashligi aytilgan?**

A. Otga o‘xshaydi.

B. Songa o‘xshaydi.

- C. Sifatga o'xshaydi.
- D. Olmoshga o'xshaydi.

**134. Ravish turkumiga mansub so'z qaysi qatordagi gapda berilgan?**

- A. Bugungi ishni ertaga qoldirma.
- B. O'quvchilar sayohatga jo'nab ketishdi.
- C. Maktabimizda Navro'z bayrami nishonlandi.
- D. O'qituvchimiz o'z she'rlaridan o'qib berdi.

**135. Qaysi qatordagi gapda ravish mavjud emas?**

- A. Yuksalsin quyosh qadar Sevinchoyning sevinchi.
- B. U rangli qalam bilan suratimni o'zimday chizdi.
- C. Faqat bitta Anvar jim o'tirardi indamay.
- D. Kecha biz erkin mavzuda insho yozdik.

**136. Qaysi qatordagi gapda holat ravishi mavjud?**

- A. Otangni ko'rsang, otdan tush (m.).
- B. El sevganni er sevr (m.).
- C. Ular do'stona qo'l siqishdi.
- D. Bugungi ishni ertaga qoldirma (m.).

**137. Qaysi qatordagi gapda holat ravishi mavjud emas?**

- A. Tekinning minnati ko'p bo'ladi (m.).
- B. Kampir o'rnidan zo'rg'a qo'zg'aldi.
- C. Bizning qizlar yigitchasiga ishlaydi.
- D. Qiz oyisi oldiga sekin va iymajib bordi.

**138. Otdan yasalgan holat ravishi qaysi qatordagi gapda mavjud?**

- A. Biznikiga tez-tez mehmon kelib turadi.
- B. Ukam harbiychasiga chest berib, hammani kuldirdi.
- C. Esayotgan shamol tobora kuchaydi.

D. Qattiq shamoldan eshiklar lang ochilib ketdi.

**139. Qaysi qatordagi gapda payt ravishi mavjud?**

- A. Odam mehnatda sinaladi (m.).
- B. Do'stning mingtasi-da kam (m.).
- C. Dushmanning bittasi ham ko'p (m.).
- D. Husn to'yda, odob kunda kerak (m.).

**140. Qaysi qatordagi gapda miqdor-daraja ravishi mavjud?**

- A. Chuqur daryo sekin oqadi (m.).
- B. Suv mo'l – hosil mo'l (m.).
- C. Arig'ingni novday xirmoningni tog'day qil (m.).
- D. Erta turganning ishi erta bitar (m.).

**141. Qaysi qatordagi gapda o'rin ravishi mavjud?**

- A. Mevasiz daraxt pastga egilmaydi (m.).
- B. Qovun yesang, sahar ye (m.).
- C. Mehnatning ziynati ko'p (m.).
- D. Yaxshilik yo'lda qolmas (m.).

**142. Qaysi qatordagi gapda qo'shma ravish mavjud?**

- A. Biz maktabga har kuni shu yerdan o'tamiz.
- B. Shoir she'rni sekin va ifodali o'qitdi.
- C. Sayyohlar yuqoriga qarab ancha yurishdi.
- D. Bolalar kutilmaganda kulib yuborishdi.

**143. Qaysi qatordagi gapda yasama ravish mavjud?**

- A. Masalani hal qilishda atroflicha o'ylash kerak.
- B. Biz ozgina yurgach, manzilga yetamiz.
- C. Rustam tez yugurib ketdi.
- D. Singlim juda erta turadi.

**144. Qaysi qatordagi gapda juft ravish mavjud?**

- A. Bizning mahalla mana shu yerdan boshlanadi.
- B. Barno opam indamasdan ishiga kirishdi.
- C. Mehmonlarimiz birin-ketin kela boshladi.
- D. Qattiq kulgi ovozi o'sha tarafdin kelardi.

**145. Qaysi qatordagi gapda takroriy ravish mavjud?**

- A. Bobom zo'rg'a-zo'rg'a kelganda, oyim uyda yo'q edi.
- B. Odam har bir ishni vijdonan bajarishi kerak.
- C. Kecha o'qituvchimizni tug'ilgan kuni bilan tabrikladik.
- D. Sport maydonchasida har kuni voleybol o'ynaymiz.

## **II. Yordamchi soʻz turkumlari.**

### **Undov, modal va taqlid soʻzlar**

#### **1. Qaysi qatordagi gapda koʻmakchi mavjud?**

- A. Suhbating-la siylagin, sochavermay sitamni (S.Egamova).
- B. Astoydil yigʻlasa, soʻqir koʻzdan yosh chiqar (m.).
- C. Gapning mujmalidan qoch (m.).
- D. El soʻzi – dil soʻzi (m.).

#### **2. Qaysi qatordagi gapda koʻmakchi mavjud emas?**

- A. Ahd – amali bilan (m.).
- B. Ilm – aqlning chirogʻi (m.).
- C. Doʻsti yoʻq bilan dardlash (m.).
- D. Doʻsti koʻp bilan siylash (m.).

#### **3. Qaysi qatordagi gapda koʻmakchi bogʻlovchi vazifasida kelgan?**

- A. Oshning taʼmi – tuz bilan (m.).
- B. Odamning taʼmi – soʻz bilan (m.).
- C. Bilim bilan hikmat – oltindan qimmat (m.).
- D. Evi bilan soʻzlaganning qurboni boʻl (m.).

#### **4. Qaysi qatorda bogʻlovchilarning dastlabki turi nechtaligi toʻgʻri aytilgan?**

- A. Beshta.
- B. Uchta.
- C. Ikkita.
- D. Toʻrtta.

**5. Qaysi qatorda bog‘lovchilarning dastlabki turi to‘g‘ri nomlangan?**

- A. Biriktiruv va zidlov bog‘lovchilari.
- B. Qiyoslov, ayiruv bog‘lovchilari.
- C. Inkori, o‘xshatish bog‘lovchilari.
- D. Teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

**6. Qaysi qatordagi gapda teng bog‘lovchi mavjud?**

- A. Ayol borki, olam – guliston.
- B. Yaxshi o‘qiymiz, shuning uchun baholarimiz «a’lo».
- C. Rustam va Iroda she’r yozadi.
- D. Suv keldi, go‘yo nur keldi.

**7. Qaysi qatordagi gapda ergashtiruvchi bog‘lovchi mavjud emas?**

- A. Paxtalar qiyg‘os ochilgan, go‘yo osmon to‘la charaqlagan yulduzlar.
- B. Biz a’lochilarmiz, chunki hammamiz yaxshi o‘qiymiz.
- C. Shuni unutmangki, hurmat odobdan boshlanadi.
- D. Narimon goh o‘qiydi, goh yozadi.

**8. Qaysi qatorda zidlov boglovchilari to‘g‘ri berilgan?**

- A. Va, ham, hamda
- B. Ammo, lekin, biroq, balki.
- C. Goh-goh, bir-bir, dam-dam.
- D. Yo, yoki, yo-yo.

**9. Qaysi qatordagi gapda zidlov bog‘lovchisi mavjud?**

- A. Havo bulutlandi va yomg‘ir shivalay boshladi.
- B. Sinfga hamma kirdi, biroq dars boshlanmadi.
- C. Sanobar bilan Lobar sinfxonani tozalashga qoldi.
- D. O‘qituvchimiz keldi-yu, dars boshlandi.

**10. Qaysi qatordagi gapda ayiruv bog‘lovchisi mavjud?**

- A. Dadam bizga badiiy va darslik kitoblar olib keldi.
- B. Mashina goh tekis, goh o‘nqir-cho‘nqir yo‘llardan borardi.
- C. Qor uchqunladi, ammo ko‘p yog‘madi.
- D. Navro‘zda hamma joyda sumalak va halim pishiriladi.

**11. Qaysi qatordagi gapda ayiruv bog‘lovchisi mavjud emas?**

- A. Har yili 8-Martda yo yomg‘ir, yo qor yogadi.
- B. Yoqimli shabada goh u, goh bu tomondan esib turardi.
- C. Qushcha daraxtning bir u, bir bu shoxiga uchardi.
- D. Mehmonlar keldi-yu, hamma ichkariga kirdi.

**12. Qaysi qatordagi gapda sabab bog‘lovchisi mavjud?**

- A. Yurtimiz obod va ko‘rkam.
- B. Mashinalar harakati to‘xtagan, shuning uchun hamma piyoda borardi.
- C. Mening kitob va daftarlarim alohida shkafda turadi.
- D. Kurashda yo men, yo raqibim g‘alaba qiladi.

**13. Qaysi qatordagi gapda aniqlov bog‘lovchisi mavjud?**

- A. Ayol borki, olam munavvar.
- B. G‘ulomjon otasining so‘zi bilan hushiga keldi (M.Ism.).
- C. Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetga qaradi (A.Qod.).
- D. Sultonmurod bilan uning do‘sti biznikiga keldi.

**14. Qaysi qatordagi gapda yuklama mavjud?**

- A. Qo‘ychi podani yaylovga haydab ketdi.
- B. Men kutubxonaga boraman. Sen-chi, Ra‘no?
- C. Katta akam – haydovchi. Avtobus minadi.
- D. Katta bobom hunarmand bo‘lgan ekanlar.

**15. Qaysi qatordagi gapda yuklama mavjud emas?**

- A. Rassom suratimni xuddi o‘zimday chizibdi.



- B. Oqilaga rahmat aytdingizmi? Nasibaga-chi?
- C. O'ktam faqat yuragidagini to'kib soldi.
- D. Qo'shig'ingni kuylayver, toki hamma bahramand bo'lsin.

**16. Qaysi qatorda ta'kid yuklamalari berilgan?**

- A. - mi, - chi, - ku.
- B. - hatto, hattoki.
- C. - ku, - da, - u (- yu).
- D. - gina, - kina, faqat.

**17. Kuchaytiruv yuklamalari qaysi qatorda berilgan?**

- A. - oq, - yoq, hatto, hattoki.
- B. - mi, -chi, - a (-ya).
- C. - gina, - kina, - qina, faqat.
- D. - ku, - da, - u (- yu).

**18. So'roq yuklamalari qaysi qatorda berilgan?**

- A. - oq, - yoq, hatto, hattokui.
- B. - gina, - kina, - qina, faqat.
- C. - ku, - da, - u (-yu).
- D. - mi, - chi, - a (-ya).

**19. Qaysi qatorda ayiruv va chegaralov yuklamalari berilgan?**

- A. - gina, - kina, - qina, faqat.
- B. - mi, - chi, -a (-ya).
- C. - oq, - yoq, hatto, hattoki.
- D. - ku, - da, - u (- yu).

**20. Qaysi qatordagi gapda undov so'z mavjud?**

- A. Oh, qanday so'lim oqshom-a!.
- B. Xayriyat, bugun havo ochilib ketdi.
- C. Men, albatta, olim bo'laman.
- D. Ehtimol, bu yil qurilishimiz bitar.

**21. Qaysi qatordagi gapda undov soʻz mavjud emas?**

- A. Eha, bu ishlarni qachon bajarib ulguraman !?.
- B. Allo, allo! Meni eshitayapsizmi? Zarinaman.
- C. O, gul janub! Jannat makoni...(U.).
- D. Sen bahorni sogʻinmadingmi? (Z.).

**22. Qaysi qatordagi gapda modal soʻz mavjud?**

- A. Biz maktab tajriba uchastkasida ishladik.
- B. Ukam matematika faniga juda qiziqadi.
- C. Men, albatta, uchuvchi boʻlaman.
- D. Buy il bahor ancha erta boshlandi.

**23. Qaysi qatordagi gapda modal soʻz mavjud emas?**

- A. Toʻgʻri, Qodirov bir vaqtlar halol ishlagan (Sh.R.).
- B. Demak, qoʻshimchalar tilning lugʻaviy maʼnosiz unsurlaridir.
- C. Maktabimiz «tabiat burchagi»da qushlarning barcha turidan bor.
- D. Darhaqiqat, maktabimiz tumandagi eng ilgʻor ilm maskanlaridan biri.

**24. Qaysi qatordagi gapda taqlid soʻz mavjud?**

- A. Tashqaridan shivir-shivir ovoz eshitiddi.
- B. Bugungi darsimiz tarbiyadan boshlandi.
- C. Atrofni quyuq tutun bosib ketdi.
- D. Kenja ukam bogʻchaga qatnaydi.

**25. Qaysi qatordagi gapda taqlid soʻz mavjud emas?**

- A. Kimdir uning qulogʻiga pichirladi.
- B. Uzoq-uzoqlardan multiqlarning qasir-qusuri eshitilardi.
- C. Ukam pish-pish uyquni boshladi.
- D. Osmon tula milt-milt yulduzlar...

**26. Taqlid soʻzdan yasalgan feʼl qaysi qatordagi gapda mavjud?**

- A. Oʻrmon vahimali shovullaydi.
- B. Qu-qu-qu-qu xoʻrozim, Uyimda xush ovozim (Q.Muhammadiy).
- C. Ichkarida birdan tasir-tusir boshlanib ketdi.
- D. Qizaloq negadir yum-yum yigʻlardi.

**27. Qaysi qatorda taqlid soʻzdan yasalgan otlar berilgan?**

- A. Tasir-tusir, shildir-shildir, pish-pish.
- B. Sharshara, varrak, gʻurrak, chugʻurchiq.
- C. Pishillamoq, gʻuvillamoq, yaltiramok.
- D. Tapillamoq, taqillamoq, shaldiramoq.

**28. Qaysi qatorda taqlid soʻzlardan yasalgan sifatlar berilgan?**

- A. Yalt-yult, pichir-pichir, shivir-shivir.
- B. Yaltiroq, qaltiroq, yarqiroq.
- C. Gʻurrak, parrak, qargʻa.
- D. Guvillamoq, pisillamoq, gʻimirlamoq.

## **VI. SINTAKSIS**

### **1. Sintaktik aloqalar. Soʻz tizmasi. Soʻz birikmasi.**

**1. Qaysi qatordagi gapda teng aloqali soʻz qoʻshilmasi mavjud?**

- A. Sinfimizda aʼlochi oʻquvchilar koʻp.
- B. Dildora kitob va daftarlarini ozoda tutadi.
- C. Sinfimizning besh oʻquvchisi olimpiada goʻlibi boʻldi.
- D. Biz qushlarni yaxshi parvarish qilamiz.

**2. Qaysi qatordagi gapda kelishikli boshqaruv aloqasi mavjud?**

- A. Yomon bilan yoʻldosh boʻlma.
- B. Yaxshilik yoʻlda qolmas.
- C. Gurunch kurmaksiz boʻlmaydi.
- D. Aqlni axmoqdan oʻrganadilar.

**3. Qaysi qatordagi gapda koʻmakchili boshqaruv aloqasi mavjud?**

- A. Qushni qanoti, odamni aqli boshqaradi.
- B. Dono har bir narsani bilib gapiradi.
- C. Odam mehnat bilan obroʻ topadi.
- D. Koʻpchilikka ergashgan tilagiga yetadi.

**4. Qaysi qatordagi gapda hokim qismi ot orqali ifodalangan bitishuvli soʻz birikmasi mavjud?**

- A. Ozi yetadi, koʻpi ketadi (m.).
- B. Tejamliida baraka koʻp boʻladi.

C. Bu tinch uyda ming yilcha turdim.

D. Yangini eski saqlaydi.

**5. Qaysi qatordagi gapda hokim qismi fe'l orqali ifodalangan bitishuvli so'z birikmasi mavjud?**

A. Hisobni bilmasang, hamyoningdan ayrilasan (m.).

B. Bolaning odobi o'zidan aziz (m.).

C. Erta eksang, erta yeysan (m.).

D. Ishqsiz qalbning o'tsiz o'choqdan farqi bo'lmaydi (m.).

**6. Qaysi qatordagi gapda «aniqlovchi+aniqlanmish» munosabatli birikma mavjud?**

A. Ko'ngil ko'ngildan suv ichar (m.).

B. Do'stini yomonlagandan qochish kerak (m.).

C. Befoyda so'zni aytma, foydali so'zdan qaytma (m.).

D. Sabr qilgan murodiga yetadi (m.).

**7. Qaysi qatordagi gapda «to'ldiruvchi+to'ldirilmish» munosabatli birikma mavjud?**

A. Yarqirab ko'ringan har narsa oltin bo'lavermaydi (m.).

B. Hidsiz gulni bozorga olib chiqmaydi (m.).

C. Muhabbat shoxdan-shoxga qo'nib yuruvchi qush emas (m.).

D. Hayot ham, muhabbat ham bitta bo'ladi (m.).

**8. Qaysi qatordagi gapda «hol+hollanmish» munosabatli birikma mavjud?**

A. Do'st achitib, dushman kuldirib gapiradi (m.).

B. Oltin zanglamaydi, bilim tugamaydi (m.).

C. Kasbning yomoni bo'lmas (m.).

D. Aql yoshda emas, boshda (m.).

**9. Qaysi gapda «ega+kesim» munosabatli birikma mavjud?**

A. Omadga mehnatsiz erishilmaydi (m.).

- B. Do'sting bilan sirdosh bo'l (m.).
- C. Suv ichgan chashmangga tupurma (m.).
- D. Bir palakdan har xil qovun yetishadi (m.).

**10. Qaysi qatordagi gapda kelishikli boshqaruv yo'li bilan hosil bo'lgan fe'lli birikma mavjud?**

- A. O'qimagan oqsayveradi (m.).
- B. O'qiganning umri uzoq bo'ladi (m.).
- C. Har kimni do'st deya o'zingga yaqin olma (m.).
- D. Odam bolasi nozik bo'ladi.

**11. Qaysi qatordagi gapda ko'makchili boshqaruv yo'li bilan hosil bo'lgan fe'lli birikma mavjud?**

- A. Bilim bilan hikmat oltindan qimmat (m.).
- B. Oltin yo'lda qolsa ham, bilim yo'lda qolmaydi (m.).
- C. Dono bilan suhbat qur, huzur qilasan (m.).
- D. Dardi yo'q odamga dardingni aytma (m.).

**12. Qaysi qatordagi gapda otli so'z birikmasi mavjud?**

- A. Suv keltirgan elda aziz bo'ladi (m.).
- B. El yovi – eng ulkan yov (m.).
- C. Mard yengilsa, maydonda qoladi (m.).
- D. Oltin o'tda, odam mehnatda toblanadi (m.).

**13. Qaysi qatordagi gapda fe'lli so'z birikmaksi mavjud?**

- A. Bir dona ko'sak – bir siqim oltin (m.).
- B. Yomgir yog'di – moy yog'di (m.)
- C. Chuqur daryo sekin oqadi (m.).
- D. Parvarishsiz bo'lsa, chopqir ot ham oyoqdan qoladi (m.).

**14. Qaysi qatordagi gapda sitfatli so'z birikmasi mavjud?**

- A. Yoshlikda olingan bilim umrboddir (m.).
- B. Davlat tugasa ham, bilim tugamaydi (m.).

- C. Bahoning yaxshisi o'quvchini quvontiradi.
- D. Kulgisiz o'tgan kunni kun dema (m.).

**15. Qaysi qatordagi gapda ravishli so'z birikmasi mavjud?**

- A. Jahl inson fazilati emas (m.).
- B. Ezgulikning kechi bo'lmaydi (m.).
- C. Yo'qolgan pichoqning sopi oltin (m.).
- D. Ikki tarvuz bir qo'ltiqqa sig'maydi (m.).

**16. Bir-biri bilan tobelanish asosida birikkan, ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'langan ikki yoki undan ortiq so'zlar bog'lanmasi nima bo'ladi?**

- A. So'zlar qo'shilmasi.
- B. So'z birikmasi.
- C. Hokim soz.
- D. Tobe soz.

**17. Nima ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lishiga qaramay, bitta tushunchani ifodalaydi?**

- A. Gap.
- B. So'zlar qo'shilmasi.
- C. So'z.
- D. So'z birikmasi.

**18. So'z birikmasi keltirilgan qatorni toping.**

- A. Bahor keldi, suvlar oqdi.
- B. Oq kabutar, qizil gul.
- C. Kitob o'qidi, xat yozdi.
- D. Keldi bahor, oqdi suvlar.

**19. Hokim komponenti fe'ldan boshqa turkumga oid so'z bilan ifodalangan so'z birikmalari qanday so'z birikmasi bo'ladi?**

- A. Fe'lli so'z birikmasi.

- B. Otli soʻz birikmasi.
- C. Sodda soʻz birikmasi.
- D. Murakkab soʻz birikmasi.

**20. Hokim qismi feʼl bilan ifodalangan soʻz birikmalari qanday soʻz birikmasi boʻladi?**

- A. Feʼlli soʻz birikmasi.
- B. Murakkab soʻz birikmasi.
- C. Sodda soʻz birikmasi.
- D. Otli soʻz birikmasi.

**21. Oʻzaro tobe + hokim munosabatdagi ikki mustaqil soʻzdan tuzilgan birikma qanday soʻz birikmasi boʻladi?**

- A. Feʼlli soʻz birikmasi.
- B. Murakkab soʻz birikmasi.
- C. Sodda soʻz birikmasi.
- D. Otli soʻz birikmasi.

**22. Qismlari yoki ulardan biri birdan ortiq soʻz bilan ifodalangan birikma qanday soʻz birikmasi boʻladi?**

- A. Feʼlli soʻz birikmasi.
- B. Murakkab soʻz birikmasi.
- C. Sodda soʻz birikmasi.
- D. Otli soʻz birikmasi.

**23. Berilgan gaplardan murakkab soʻz birikmasi ishtirok etgan gapni toping.**

- A. Kuchli shamol hamma yoqni ostin-ustun qildi (gazetadan).
- B. Moshrang duxoba doʻppili bola bolalarning eng kattasi edi (Oybek).
- C. Yuk mashinasi, barcha oʻquvchilar, goʻzal qishloq.
- D. Bogʻni aylanmoq, paxta termoq, tez yurmoq, yaxshi tushuntirmoq.



**24. Berilgan gaplardan sodda soʻz birikmasi ishtirok etgan gapni toping.**

A. Mirzakarimboy oʻz oʻgʻliga oʻqrayib, boshini quyi solganini hamma sezdi (Oybek).

B. Kuchli shamol hamma yoqni ostin-ustun qildi (gazetadan).

C. Bogʻni aylanmoq, paxta termoq, tez yurmoq, yaxshi tushuntirmoq.

D. Yuk mashinasi, barcha oʻquvchilar, goʻzal qishloq.

**25. Soʻz birikmalari tarkibidagi tobe va hokim soʻzning hech qanday qoʻshimchasiz, faqat ohang va maʼnosiga koʻra bogʻlanishi nima deyiladi?**

A. Boshqaruv.

B. Hokim soʻz.

C. Moslashuv.

D. Bitishuv.

**26. Tobe soʻzning hokim soʻzga tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari yoki koʻmakchilar yordamida bogʻlanishi nima deyiladi?**

A. Boshqaruv.

B. Bitishuv.

C. Moslashuv.

D. Hokim soʻz.

**27. Tobe soʻzning hokim soʻzga qaratqich kelishigi qoʻshimchasi yordamida, hokim soʻzning esa tobe soʻzga egalik qoʻshimchalari yordamida bogʻlanishi nima deyiladi?**

A. Boshqaruv.

B. Bitishuv.

C. Moslashuv.

D. Hokim soʻz.

**28. Bitishuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalari qatorini toping.**

A. Do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq.

B. Bahor keldi. Suvlar oqdi. O‘quvchi sozladi.

C. Kitobning muqovasi, xonalarning kattarog‘i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

D. Tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy.

**29. Moslashuv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalari qatorini toping.**

A. Bahor keldi. Suvlar oqdi. O‘quvchi sozladi.

B. Do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq.

C. Kitobning muqovasi, xonalarning kattarog‘i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

D. Tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy.

**30. Boshqaruv yo‘li bilan birikkan so‘z birikmalari qatorini toping.**

A. Do‘stlarni hurmat qilmoq, g‘alaba uchun kurashmoq, yoshlarga g‘amxo‘rlik qilmoq, sharoitga ko‘ra yondashmoq.

B. Kitobning muqovasi, xonalarning kattarog‘i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

C. Bahor keldi. Suvlar oqdi. O‘quvchi sozladi.

D. Tez termoq, chiroyli gapirmoq, ishchan o‘quvchi, mehribon murabbiy.

**31. Gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelangan, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir necha hokim so‘zga aloqador bo‘lgan hollar nima bo‘ladi?**

A. Soʻz birikmalari zanjiri.

B. Hokim soʻz.

C. Tobe soʻz.

D. Boshqaruv.

**32. Berilgan birikmalardan soʻz birikmalari zanjirini toping.**

A. Tez termiq, chiroyli gapirmoq, ishchan oʻquvchi, mehribon murabbiy.

B. Kitobning muqovasi, xonalarning kattarogʻi, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.

C. Doʻstlarni hurmat qilmoq, gʻalaba uchun kurashmoq, yoshlarga gʻamxoʻrlik qilmoq, sharoitga koʻra yondashmoq.

D. Paxta gulli chinni piyola, uchta paxta gulli chinni piyola.

**33. Soʻz birikmasining hokim qismi nima boʻladi?**

A. Tobe soʻz.

B. Hokim soʻz.

C. Qoʻshma soʻz.

D. Sodda soʻz.

**34. Soʻz birikmasida sintaktik jihatdan boshqa soʻzga tobe vaziyatdagi soʻz nima boʻladi?**

A. Sodda soʻz.

B. Hokim soʻz.

C. Qoʻshma soʻz.

D. Tobe soʻz.

**35. Nutq jarayonida soʻzlardan soʻz birikmasi va gaplarning hosil qilinishi nima deb nomlanadi?**

A. Soʻzlar qoʻshilmasi.

B. Soʻbirikmasi.

C. Gaplar tizmasi.

D. Soʻzlar tizmasi.

## **2. SODDA GAP SINTAKSISI**

### **1. Qaysi qatorda tasdiq ma'noli darak gapga misol berilgan?**

- A. Suv ichidagi odam yomg'irdan qo'rqmaydi (m.).
- B. Oziqlik ot horimas (m.).
- C. Yer to'ymasdan el to'ymas (m.).
- D. Suv bor joyda hayot bo'ladi (m.).

### **2. Qaysi qatorda inkor ma'noli darak gapga misol berilgan?**

- A. Arpa ekkan arpa, bug'doy ekkan bug'doy oladi (m.).
- B. Birovga chuqur qazigan o'zi yiqiladi (m.).
- C. Yarqiragan har narsa oltin bo'lavermaydi (m.).
- D. Tashqarida maydalab yomg'ir yog'yapti.

### **3. Qaysi qatorda so'roq gap yuklama orqali ifodalangan?**

- A. Dadam bizlarga qanaqa sovg'a keltirdi?
- B. Qachon ikkalamz dam olishga boramiz?
- C. Bu kitobni o'qib chiqdim. Siz-chi, Shahlo?
- D. Nega xomushsiz? Sizni kim xafa qildi?

### **4. Olmosh orqali ifodalangan so'roq gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Yo'qolgan narsangiz qachon topildi?
- B. O'sha kungi hikoyangizni yana bir takrorlamaysizmi?
- C. Uy vazifasini bajardingmi, Yo'ldosh?
- D. Zarifning musobaqadagi yutug'ini eshitdingmi?

**5. Javob talab qilmaydigan so‘roq gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Muhabbat kuyida she‘r bitmagan oshiq topiladimi?
- B. O‘sha kuni sen qaerda qolib ketding?
- C. Barnoning akasi olim bo‘lganini eshitdingmi?
- D. O‘qigan kitoblaringdan qaysi biri senga yoqdi?

**6. Sof buyruq ma’nosini bildirgan gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. To‘xtab turgan mashina birdan yurib ketdi.
- B. Qizlik uyning tili biyron (m.).
- C. O‘g‘ling yoqqan chiroqni qizing ham yoqadi (m.).
- D. Behayoni urib emas, kulib hayda (m.).

**7. Maslahat ma’nosini bildirgan buyruq gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l (m.).
- B. O‘sha kungi voqeani yana so‘zlab ber.
- C. Do‘konga chiqib, yangi gazetalardan olib kel.
- D. Menga bir piyola suv keltirsangchi.

**8. Iltimos ma’nosini bildirgan buyruq gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Elga qo‘shilib, el bo‘lasan (m.).
- B. Menga uy vazifasini bajarishga yordamlashsang.
- C. Ish seni emas, sen ishni yeng (m.).
- D. O‘rningdan tur, menga bir piyola suv keltir.

**9. Istak ma’nosidagi buyruq gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Tirishgan tog‘dan oshibdi (m.).
- B. Men ham yaxshi o‘qib, boshqalar kabi katta olim bo‘lay.
- C. Do‘stlik, sadoqatga belingni bog‘la.
- D. Yaxshi so‘zga quloq sol, yomoniga tuzoq sol (m.).

**10. Qaysi qatorda his-hayajon gapiga misol berilgan?**

- A. Bu vodiya da sayr qilib to‘ymaysan kishi.
- B. Qushlar bizning do‘stimiz.
- C. She‘rlarim mening farzandlarim kabidir.
- D. Tog‘ havosi biram huzurbaxsh ekan.

**11. Qaysi gapda his-hayajon maxsus so‘z orqali ifodalangan?**

- A. Naqadar go‘zal, naqadar orombaxsh o‘lka ekan bu yer!
- B. Oho, suvning sovuqligini qarang-a!
- C. Yashasin qo‘lga kiritilgan bu g‘alaba!
- D. Bayramingiz muborak bo‘lsin, azizlar!

**12. His-hayajon gaplarining darak-undov turiga qaysi qatorda misol berilgan?**

- A. Yashasin bizning g‘oliblar! Ularga shon-sharaflar bo‘lsin!
- B. Shu ishlarni oldinroq bajarib qo‘yilsa bo‘lmasmidi?!
- C. Mana, intiq bo‘lib kutganimiz Navro‘z ham keldi!
- D. Nega men tarbiyaga muhtoj ekanman? Kimdan chiqqan bu gap o‘zi?!

**13. His-hayajon gaplarining so‘roq-undov turiga qaysi qatorda misol berilgan?**

- A. Ha darhaqiqat, musobaqa g‘oliblari bilan faxrlanamiz!
- B. Eha, Sizning kelishingiz katta quvonch-ku!
- C. Tanlov g‘oliblariga shon-sharaflar bo‘lsin demaysizmi?!
- D. Bizning sinf hamma ishda ilg‘or! Har qancha faxrlansak, arziydi!

**14. His-hayajon gaplarining buyruq-undov turiga qaysi qatorda misol berilgan?**

- A. G‘oliblarimizning ishlari har doim ana shunday omadli bo‘lsin!
- B. Yozgi ta’tilda zo‘r dam oldik. Oh, qanday maza bo‘ldi!
- C. Nega jimsiz? Aytganingizni keltirsangiz bo‘lmaydimi?!
- D. Bu yilgi bahor qanday fayzli keldi-a!

**15. Qaysi qatorda ikki bosh bo‘lakli gapga misol berilgan?**

- A. Uzoq-uzoqlardan dilrabo musiqa ovozi eshitilardi.
- B. Ahd qilsang, baland toqqa ham chiqasan (m.).
- C. Etni tirnoqdan ajratib bo‘lmaydi (m.).
- D. Bugunoq safarga jo‘namoqchimiz.

**16. Qaysi qatorda bir bosh bo‘lakli gapga misol keltirilgan?**

- A. Kecha biz maktabda Yangi yil tadbirini o‘tkazdik.
- B. Hammamiz dala ishlariga safarbar etildik.
- C. Gap bilan emas, ish bilan shoshish kerak.
- D. Qo‘shnimizning hovlisida katta hovuz bor.

**17. Qaysi qatordagi gapda ega shaklan mavjud?**

- A. Noxos ko‘tarilgan «dod-voy»dan o‘zimga keldim.
- B. Taomni shoshmasdan yeyish kerak.
- C. Azamat ro‘parasidagi qizga termulib qoldi.
- D. Hozirgi yoshlarga aql o‘rgatib bo‘lmaydi.

**18. Qaysi qatordagi gapda ega mavjud emas?**

- A. Muhammadalining safari to‘rt yilga cho‘zildi (A.Mahkam).
- B. Qasam bilan aytamanki, umrimda hech kimga yomonlik qilmadim.
- C. Sen men uchun ham haj safarini ado qilgin (A.Mahkam).
- D. Uzoq-uzoqlardan itlarning hurishi eshitilardi.

**19. Murakkab ega mavjud gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. O‘ylanmay qilingan ish boshga keltirar tashvish (m.).
- B. Ishlagan er og‘iz to‘ldirib yer (m.).
- C. Mehnatdan do‘st, g‘iybatdan dushman ortadi (m.).
- D. Mehnat bilan yer yashnar (m.).

**20. Qaysi gapning egasi sifatdash orqali ifodalangan?**

- A. O‘qigan o‘zar, o‘qimagan to‘zar (m.).
- B. Yetti uchga teng bo‘linmaydi.
- C. O‘spirin yigit ro‘parasidagiga nimalarnidir uqtirardi.
- D. Stol, stul uy mebellariga kiradi.

**21. Qaysi qatordagi gapda kesim fe‘l bilan ifodalangan?**

- A. Til – yurakning kaliti (m.).
- B. Suv oqishidan, sevgi boqshidan bilinadi (m.).
- C. Bekorchidan hamma bezor.
- D. O‘zing pok – umring pok (m.).

**22. Qaysi qatordagi gapda kesim fe‘l bilan ifodalanmagan?**

- A. Odamni umid yashartiradi, g‘am qaqshatadi (m.).
- B. Ertaning rejasini bugun tuz (m.).
- C. Shirin so‘z asaldan shirin (m.).
- D. Ariqni suv, odamni so‘z buzadi (m.).

**23. Ot kesimli gap qaysi qatorda berilmagan?**

- A. Til qilichdan o‘tkir (m.).
- B. To‘g‘ri til toshni, egri til boshni yoradi (m.).
- C. Arqonning uzuni, gapning qisqasi yaxshi (m.).
- D. Jahl – dushman, aql – do‘st (m.).

**24. Ot kesimli gap qaysi qatorda berilgan?**

- A. Mehr-u oqibat meros azaldan (S.H.).
- B. Aql bo‘y bilan o‘lchanmaydi (m.).
- C. Ko‘ngil ko‘ngildan suv ichar (m.).
- D. Ko‘rganni ko‘rmagan yengibdi (m.).

**25. Qaysi qatordagi gapda bog‘lama yordamchi so‘z bilan ifodalangan?**

- A. So‘rab bilganning aybi yo‘q (m.).
- B. Kitob – aql qaymog‘i (m.).



C. Sir saqlaganga balo yo‘q (m.)

D. Yolg‘onchi odam emas (m.).

**26. Qaysi qatordagi gapda bog‘lama qo‘shimcha bilan ifodalangan?**

A. Dushmaningni kulgani – siringni bilgani (m.).

B. Odamning tizgini aqlidir (m.).

C. Otangning borida yo‘l tani (m.).

D. O‘zi bemalolning so‘zi bemalol (m.).

**27. Qaysi qatordagi gapda bog‘lama ohang yordamida ifodalangan?**

A. Aqlning o‘lchovi – idrok (m.).

B. Aql yoshda emas, boshda bo‘ladi (m.).

C. Yomonga quyoshli kun ham qorong‘idir (m.).

D. Farzand boqishdan ham farzand dog‘i og‘ir (m.).

**28. Qaysi qatordagi gapda ega va kesim shaxs va sonda moslashgan?**

A. Sinfimizda sport bilan shug‘ullanuvchilar ancha.

B. Mohira va Salima musobaqa g‘olibi bo‘lishdi.

C. Dadam maktabda ishlaydilar.

D. Biz vazifalarni o‘z vaqtida bajaramiz.

**29. Qaysi qatordagi gapda ega va kesim sonda moslashmagan?**

A. Anvar faqat a‘lo baholarga o‘qiydi.

B. Men yaqinda shaharga bordim.

C. O‘quvchilar mehnat faxriylari bilan suhbatlashdi.

D. Biz Vatanimizni sevamiz, unga sodiqmiz.

**30. Qaysi qatordagi gapda kesim bog‘lama olgan?**

A. Do‘stlarimiz bizni iliq va samimiy kutib olishdi.

B. Hikmatlarga boy asar maqollardir.

- C. Maktab – ta’lim va tarbiya maskani.
- D. O‘qituvchi va murabbiylar – ota va onadan ulug‘ insonlar.

**31. Qaysi qatordagi gapda ega va kesim orasiga tire noto‘g‘ri qo‘yilgan?**

- A. Maqol va matallar – hikmatga nihoyatda boydir.
- B. Meni qiziqtirgan kitoblar – badiiy asarlar.
- C. Oyni o‘n beshi yorug‘ bo‘lsa, o‘n beshi – qorong‘i.
- D. Bog‘cha – ta’lim-tarbiyaning dastlabki bosqichi.

**32. Qaysi qatordagi gapda vositasiz to‘ldiruvchi ot bilan ifodalangan?**

- A. Bilganni bilmagan yengibdi (m.).
- B. Yaxshini, yaxshi ishini aytib, maqtaydilar (m.).
- C. Besh ikkiga teng bo‘linmaydi.
- D. Direktor o‘quvchilarni bayram bilan tabrikladi.

**33. Qaysi qatordagi gapda vositasiz to‘ldiruvchi olmosh bilan ifodalangan?**

- A. O‘qituvchimiz bizni o‘lkashunoslik muzeyiga olib bordi.
- B. Maktab ma’muriyati yaxshi o‘qiyotganlarni rag‘batlantirdi.
- C. Hamma uy vazifasini to‘g‘ri bajaribdi.
- D. Sinf majlisiga ota-onalarni ham taklif etishdi.

**34. Qaysi qatordagi gapda vositasiz to‘ldiruvchi bor?**

- A. Sinalmagan qaymodan sinalgan qatiq yaxshi (m.).
- B. Tilga e’tiborlida elga e’tibor bo‘ladi.
- C. Yaxshi gapni hamma tinglaydi.
- D. So‘zlaganga emas, so‘zlatganga qara (m.).

**35. Qaysi qatordagi gapda murakkab to‘ldiruvchi mavjud?**

- A. Singlim choynakni ichkariga olib kirdi.
- B. Kitobni seving, unda hikmat ko‘p.

- C. Ba'zan donodan ham xatolik o'tarkan (m.).
- D. El qozonini to'ldirganni el to'ydiradi (m.).

**36. Qaysi qatordagi gapda ravish holi mavjud?**

- A. Kutubxonada qiziqarli kitoblarni o'qidik.
- B. Kecha maktabimizda ajoyib tadbir o'tkazildi.
- C. Yo'ldagi voqea to'satdan va tasodifan ro'y berdi.
- D. Katta yo'lda mashinalar qatnovi avjida.

**37. Qaysi qatordagi gapda o'rin holi mavjud?**

- A. Bolalar multfilmlarni zo'r qiziqish bilan ko'radilar.
- B. Shu paytlarda har kuni yomg'ir yog'ayapti.
- C. Dadam bizga paykaldan shirin qovun keltirdilar.
- D. Singlim bugun bog'chaga erta jo'nadi.

**38. Qaysi qatordagi gapda payt holi mavjud?**

- A. Shahrimizda zamonaviy binolar qad ko'tarmoqda.
- B. Ra'no she'rni nihoyatda ifodali o'qiydi.
- C. Bugungi ishni ertaga qo'yma (m.).
- D. Dadam Zomin sanatoriyalaridan birida dam oldilar.

**39. Qaysi qatordagi gapda miqdor-daraja holi mavjud?**

- A. Ukam kech bo'lishi bilan uxlab qoladi.
- B. Zebo har kuni ikki soat dars qiladi.
- C. Ukam sport maydonidan terlab-pishib keldi.
- D. Mehmon gapiraverib, hammani zeriktirdi.

**40. Qaysi qatordagi gapda sabab holi mavjud?**

- A. Kecha klubimizda zo'r konsert berildi.
- B. To'rt o'quvchimiz tuman markaziga jo'natildi.
- C. Zumrad betobligidan darslarga kela olmadi.
- D. Men har kuni stadionda mashq qilaman.

**41. Qaysi qatordagi gapda ravish holi mavjud?**

- A. Qishlog‘imizda yangi maktab binosi qurildi.
- B. Kecha hammamiz Alisherlarnikida mehmon bo‘ldik.
- C. Raqqosa katta sahnada tovusdek o‘ynadi.
- D. Akamning to‘yi avgustning oxiriga qoldirildi.

**42. Qaysi qatordagi gapda shart holi mavjud?**

- A. Mashhura kecha shahardan kechroq qaytdi.
- B. Aziza adabiyot fanidan faqat «besh» oladi.
- C. Biz yaqinda muzey ekskursiyasiga boramiz.
- D. Yerni yaxshi parvarish qilsang, mo‘l hosil olasan.

**43. Qaysi qatordagi gapda to‘siqsizlik holi mavjud?**

- A. Bir kun oldin eksang, hafta burun o‘rasan.
- B. Suv bor joyda hayot bo‘ladi.
- C. Sharifa betobligiga qaramay, darsni qoldirmadi.
- D. Shu kunlarda kechga yaqin havo soviyapti.

**44. Qaysi qatordagi gapda ham o‘rin, ham payt holi mavjud?**

- A. Ertaga maktabimizga qo‘shni maktabdan mehmonlar kelarkan.
- B. Men akam bilan har kuni telefonda gaplashaman.
- C. Qishlog‘imizning chekkasida katta soy oqadi.
- D. O‘qituvchimiz hammamiz bilan samimiy munosabatda bo‘ladi.

**45. Qaysi qatordagi gapda aniqllovchi olgan ega mavjud?**

- A. Ustaning hovlisida bor edi yosh kuchukcha (N.Mamajonov).
- B. Yer boylikning otasidir.
- C. Suv misli ov, vaqti kelsa, tilsiz yov (m.).
- D. Yer boylikning onasidir (m.).

**46. Qaysi qatordagi gapda aniqllovchi olgan kesim mavjud?**

- A. Oltinning eskisi bo‘lmas (m.).
- B. Bir kattaning, bir kichikning gapiga kir (m.).

C. Tilning uzuni boshga kaltak bo‘ladi (m.).

D. Do‘stsiz bosh tuzsiz oshdir (m.).

**47. Qaysi qatordagi gapda aniqlovchi olgan to‘ldiruvchi mavjud?**

A. Chavondozi ot tizginini tortib, o‘ngga burdi.

B. Bemaza qovunning urug‘i ko‘p bo‘ladi (m.).

C. Dushmanning katta-kichigi bo‘lmaydi (m.).

D. Qishlog‘imiz faollari hammaga o‘rnakdir.

**48. Qaysi qatordagi gapda aniqlovchi olgan aniqlovchi mavjud?**

A. Gullab-yashnayotgan Vatanimizning dovrug‘i olamga yetgan.

B. Otning yaxshisi poygada bilinadi (m.).

C. Odobli, iboli qizlarni hamma hurmat qiladi.

D. Bir dona ko‘sak bir siqim oltinga teng (m.).

**49. Qaysi qatordagi gapda aniqlovchi olgan hol mavjud?**

A. Eski yilning hisobi yangi yil uchun kitobdir (m.).

B. Odamning qimmati uning mehnatiga qarab belgilanadi (m.).

C. Jannatmakon yurtimizda ajoyib insonlar yashaydi.

D. Har kishining g‘ayrati orzusiga yarasha bo‘ladi.

**50. Qaysi qatordagi gapda qaratqich aniqlovchi son bilan ifodalangan?**

A. Yettining birini Xizr deydilar.

B. Toyning kishnagani – ot bo‘laman degani (m.).

C. Ilonning zahri og‘zida bo‘ladi (m.).

D. Kiyimning yangisi, do‘stning eskisi yaxshi (m.).

**51. Qaysi qatordagi gapda belgili qaratqich aniqlovchi mavjud?**

A. Ustoz o‘rnini yaxshi shogird egallaydi (m.).

- B. Inson aqli uning mushtumidan kuchlidir (m.).
- C. Tafakkur jasorati kamdan-kam odamda bo‘ladi.
- D. Qush qanoti uchganda chiniqadi (m.).

**52. Qaysi qatordagi gapda belgisiz qaratqich aniqlovchi mavjud?**

- A. Har narsaning o‘z mavridi bo‘ladi (m.).
- B. Qishning bir kuni ham qishdir (m.).
- C. Ustozning ham o‘z ustozini bo‘lgan (m.).
- D. Ustoz bilimi – shogirdlarga rahnamo (m.).

**53. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchisi ot bilan ifodalangan?**

- A. Saxiy insonlar minnatni bilmaydilar (m.).
- B. Otlar temir darvozadan boshini sal egib o‘tdi.
- C. Ishlamay kun kechirayotgan yigitlar ko‘p emas.
- D. Qumrining qulogiga notanish ovoz eshitildi.

**54. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi son bilan ifodalangan?**

- A. Uyimizga qo‘shnilar ikki-uch kishi bo‘lib kirishdi.
- B. O‘tirganlar orasidan ikki odamni durust taniyman.
- C. Hamma ham ming‘ir-ming‘ir suhbatni yoqtirmasa kerak.
- D. Guvillab turgan mashina motori birdan o‘chib qoldi.

**55. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi fe‘l bilan ifodalangan?**

- A. Tashqaridan kimlarningdir shivir-shivir ovozi eshitildi.
- B. Qizlar Hulkarning did bilan o‘rilgan sochiga havas bilan qarashdi.
- C. Anvar o‘nta katta va og‘ir kitobni ichkariga ko‘tarib kirdi.
- D. Qiziqarli hikoya qolgan joyidan davom ettirildi.

**56. Qaysi qatordagi gapda sifatlovchi aniqlovchi taqlid soʻz bilan ifodalangan?**

- A. Mashinaning gʻuv-gʻuv ovozi hamon eshitilib turardi.
- B. Zeboning katta akasi dissertatsiya yoqlabdi.
- C. Oyim tandirdan loʻpillagan issiq nonlarni uzardi.
- D. U umrida ikki-uch kitobnigina shunchaki varaqlagan, xolos.

**57. Qaysi qatordagi gapda mustaqil izohlovchi mavjud?**

- A. Qishloq ahli Maʼruf oqsoqoldan minnatdor.
- B. Mehnat Qahramoni Same Samadov maktabimiz mehmoni boʻldi.
- C. Bolalar Salima momodan har kuni xabar oladilar.
- D. Yaqinda Karim akam harbiy xizmatdan qaytadi.

**58. Qaysi gapda mustaqil boʻlmagan izohlovchi mavjud?**

- A. Biz mehnat faxriysi Musharraf Salimova bilan suhbatlashdik.
- B. Oʻquvchilar shoir Toʻra Sulaymon ijodi boʻyicha insho yozdilar.
- C. Tadbirkor Avaz Islomov oʻz ishlaridan gapirdi.
- D. Hammamiz Halima opani hurmat qilamiz.

**59. Qaysi jumlada gap boʻlaklarining odatdagi tartibi oʻzgargan?**

- A. Qoʻrqoq odamlargina yovga doʻst boʻladi (m.).
- B. Aqlga egaligi bilan hayvondan farq qilur inson.
- C. Ertaning rejasini bugun tuz.
- D. Gapning qisqasi yaxshi.

**60. Qaysi gapda toʻldiruvchi va kesimning odatdagi tartibi oʻzgargan?**

- A. U xomroq bu hikoyani keyinroqqa surib qoʻydi.
- B. Choʻtir yuzli goʻzal ayolga taqdim etgum yangi sirgʻa (O.Ikrom).

- C. Ey aka, mashinangizni tezroq haydasangiz-chi.  
D. Durbek mushtdek-mushtdek o‘riklardan besh-o‘nini cho‘ntakka urdi.

**61. Qaysi gapda hol va kesimning odatdagi tartibi o‘zgargan?**

- A. I-ye. Yantok o‘smas ekan-ku bu yerlarda!  
B. Biz manzilga nomozshom paytda yetib bordik.  
C. Tashqarida yog‘ayotgan yomg‘ir qorga aylandi.  
D. Shu payt kimdir ro‘parada ko‘rindi.

**62. Qaysi qatordagi gapda egalar uyushgan?**

- A. Mashhura ukasi bilan singlisini bog‘chaga olib bordi.  
B. Men ustozlarim va ota-onamni bir maromda hurmat qilaman.  
C. Alisher, Ra‘no va Sanobarlar sinfimizning faxridir.  
D. Sayyoxlar o‘nqir-cho‘nqir va botqoqlik joylardan qiynalmay o‘tdilar.

**63. Qaysi qatordagi gapda kesimlar uyushgan?**

- A. Suv molekulasi bir atom kislorod, ikki atom vodoroddan iborat bo‘ladi.  
B. Tunda otlarning dupuri, itlarning hurishi eshitilardi.  
C. Tuya ham issiqqa, ham sovuqqa chidamli hayvon ekan.  
D. Ishdan kelib dadam yechindilar va uy kiyimlarini kiydilar.

**64. Qaysi qatordagi gapda to‘ldiruvchilar uyushgan?**

- A. Katta yoshlilar va ota-onani hurmat qilish kerak.  
B. Sabr bilan zafar eski do‘stdir (m.).  
C. Sabr tufayli zafar keladi.  
D. Bir azobning bir rohati ham bo‘ladi (m.).

**65. Qaysi gapda umumlashtiruvchi so‘zli uyushiq bo‘lak mavjud?**



A. Komil insonda hamma narsa: yurish-turish, xulq-atvor, muomala-munosabat go‘zal bo‘lishi kerak.

B. Dadam quriganligi uchun hovlimizdagi tol va teraklarni kesib tashladi.

C. Oyim bozordan qand-qurs va boshqa meva-chevalar keltirdi.

D. Soliha, Dilbar va Shavkatlar musobaqa o‘ynashdi.

**66. Qaysi qatordagi gapda ajratilgan bo‘lak mavjud?**

A. Qishlogimizda ma‘muriy binolar ko‘p, ko‘rkam, zamonaviy.

B. O‘quvchilar rangli qog‘ozlardan har xil o‘yinchoqlar yasadi.

C. Sinfimizdan bir o‘quvchi tarix fani olimpiadasiga qatnashdi.

D. Bilimli, tadbirkor kishilar davrimizning peshqadamlari sanaladilar.

**67. Qaysi qatordagi gapda vositali to‘ldiruvchi ajratilgan?**

A. Muzeyimizga qishlog‘imizdan chiqqan qahramonlar hayotidan lavha berilibdi.

B. Maktabimizda o‘tkazilgan katta yig‘inda Sobira opaga, sinf rahbarimizga, yuksak mukofot topshirildi.

C. Bizning qo‘l ishlarimiz maktabimiz ko‘rgazma zaliga qo‘yilgan.

D. Ta‘til vaqtida men uzoqdagi qarindoshlarimiznikida dam oldim.

**68. Qaysi qatordagi gapda vositasiz to‘ldiruvchi ajratilgan?**

A. Sanobar opani maktabimizda hamma ustoz deb hurmat qiladi.

B. Maktab ilmiy bo‘limi Mashhurani, sinf boshlig‘imizni, oldiga chaqirdi.

C. Rustam sotib olgan yangi kitobini varaqlay boshladi.

D. Biz muzeydagi yangi eksponatlarni tomosha qildik.

**69. Qaysi qatordagi gapda ajratilgan hol mavjud?**

A. Qadimda hozirgi qishloq xo‘jaligi texnikalari bo‘lmagan.

B. Biz bir vaqtda, aniqrog‘i, kechki soat beshlarda, sport maydonida hozir bo‘ldik.

- C. Yaqinda maktabimizda tarix muzeyi tashkil qilindi.
- D. Akam qushlarni sevadi, ularni yaxshi parvarish qiladi.

**70. Qaysi qatorda undalmali gap berilgan?**

- A. Hoy qizaloq, qizaloq, hayot yo‘ling bo‘lsin oq (P.Hamzaev).
- B. Bahor paytida dalalarimiz ko‘m-ko‘k tusga kiradi.
- C. Opam va akam bizlarni shaharga olib bordi
- D. Yangi mashinamiz uchun hovli chetidan garaj qurdik.

**71. Qaysi qatorda yoyiq undalmali gap berilgan?**

- A. Qo‘lni bering, insonlarim, ortga qaytsin iymonlarim.
- B. Rais, tinglang arzimni, to‘laganman qarzimni (N.Mamajonov).
- C. Siringni och, sirli dunyo, sirlaringni bilib olay.
- D. Yodgor, sen shu yerda tura tur, men mehmonlarni kutib olay.

**72. Qaysi qatorda kirish so‘zli gap berilgan?**

- A. Hovlimiz atrofi baland teraklar bilan o‘ralgan.
- B. Bozorlarda narx-navolar ancha tashlagan.
- C. O‘zgalarga hasad bilan emas, havas bilan yasha, yaxshisi.
- D. To‘y bo‘ladigan xonadon yaxshilab ta’mirlangan.

**73. Qaysi qatordagi gapda kirish so‘z gap o‘rtasida kelgan?**

- A. Zoologiya xonasida, aftidan, qushlar burchagi ham bor edi.
- B. Aytishlaricha, bir vaqtlar bu yerlar suvlik bo‘lgan.
- C. Ming afsuski, senga bermoqchi bo‘lgan kitob uyda qolibdi.
- D. Bugun havo bulutlangan, biror narsa yog‘adi, shekilli.

**74. Qaysi qatordagi gapda kirish so‘z gap oxirida kelgan?**

- A. Men, afsuski, matematika fakultetiga o‘qishga kirmadim.
- B. Zora, yomg‘ir tinib, safarimiz davom etsa.
- C. Ishonsangiz, bu gap mendan chiqqan emas.
- D. Ukam tezroq kelib, ishlarimizga yordamlashsa, koshki edi.

**75. Qaysi qatorda bir bosh bo‘lakli gapga misol berilgan?**

- A. Ilmsiz joyda ma‘rifat bo‘lmaydi.
- B. Ukam og‘riqning zo‘ridan tuni bilan uxlay olmadi.
- C. Dono do‘stning pandini qabul qilish kerak.
- D. Sarvinoz negadir kecha darsga qatnasha olmadi.

**76. Qaysi qatorda shaxsi ma‘lum bir bosh bo‘lakli gapga misol berilgan?**

- A. Yaxshi va ibratli insonlarni maqtaydilar.
- B. Bunday qabihliklarga chidab bo‘lmaydi.
- C. Takror qilsang, olim bo‘lasan.
- D. Kasallanib, darslarga ishtirok etolmadim.

**77. Qaysi qatorda shaxsi noma‘lum bir bosh bo‘lakli gapga misol berilgan?**

- A. Ma‘rifati yo‘q yurtida yorug‘ kunlar bo‘lishiga ishonmaydilar.
- B. O‘zlikni anglashni buyuk davlat deb bil.
- C. Yaxshi o‘qib, olim bo‘lsam deyman.
- D. Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi (m.).

**78. Qaysi qatorda egasi topilmas bir bosh bo‘lakli gapga misol berilgan?**

- A. Sifatli mebellarni Toshkentdan keltirishadi.
- B. Ko‘pni ko‘rganlardan saboq oling.
- C. Vazifalarning barchasini bajarib ulgurdim.
- D. Sayohatga belgilangan vaqtdan oldin jo‘nashga to‘g‘ri keldi.

**79. Qaysi qatorda to‘liqsiz gapga misol berilgan?**

- A. Osmon oftobi bilan go‘zal, inson – odobi bilan (m.).
- B. Yerga qaraganni qattiq koyimaslik kerak (m.).
- C. Mehmon oldida mushugingni pisht dema (m.).
- D. Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom deganlar.

### 3. QO‘SHMA GAP SINTAKSISI

#### 1. Qaysi qatorda qo‘shma gapga misol berilgan?

- A. Sinalmagan do‘st – chaqilmagan yong‘oq (m.).
- B. Olmaning qizilligiga, dushmanni «do‘st»liga ishonma (m.).
- C. Do‘st achitib gapirar, dushman kuldirib (m.).
- D. Tabiat xasis emas, aridan bol, tikandan gul qilaveradi (A.Qod.).

#### 2. Qaysi qatorda sodda gapga misol berilgan?

- A. Suhbat bilan so‘z shirin, ovqat tuz bilan (m.).
- B. Ariqni suv bezaydi, odamni – so‘z (m.).
- C. So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor (m.).
- D. Birov gapni yog‘lab, birov tikanak bog‘lab gapiradi (m.).

#### 3. Qaysi qatorda bog‘lovchili qo‘shma gapga misol berilgan?

- A. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar (m.).
- B. Maraka – mardniki, to‘y – xalqniki (m.).
- C. Qo‘l ishlasa, ko‘ngil orom olar (m.).
- D. Mehnatsiz er yer bo‘lar (m.).

#### 4. Qaysi qatorda bog‘lovchisiz qo‘shma gapga misol berilgan?

- A. Ishni kovlasang, ish chiqadi (m.).
- B. Botir, yov kelganda, bilinadi (m.).
- C. Urush bo‘lsa, turish yo‘q (m.).
- D. Ish seni yengmasin, sen ishni yeng (m.) .

#### 5. Qaysi qatorda sodda gapga misol berilmagan?

- A. Odamni po‘stin emas, ish qizdiradi (m.).

- B. Tirishgan tog‘dan oshgan, yorug‘likka yo‘l ochgan (m.).
- C. Suvsiz hayot bo‘lmas, mehnatsiz rohat (m.).
- D. Bahorgi harakat – kuzgi barakat (m.).

**6. Qaysi qatorda qo‘shma gapga misol berilmagan?**

- A. Vaqting ketdi – naqding ketdi (m.).
- B. Birni birov beradi, ko‘pni – mehnat (m.).
- C. Yo‘lbars bolasini tutish uchun yo‘lbars uyasiga kirish kerak (m.).
- D. Ota-ona aziz, el-yurt undan aziz (m.).

**7. Qaysi qatorda bog‘langan qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Botir ko‘zidan o‘lim ham qo‘rqadi (m.).
- B. Johillikdan jon chiqar, qobillikdan dong chiqar (m.).
- C. Kanal qazildi va suv keldi.
- D. Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni (m.).

**8. Qaysi qatorda bog‘lovchisiz qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Hunari yo‘q kishining mazasi yo‘q ishining (m.).
- B. Puling mingga yetguncha, do‘sting mingga yetsin (m.).
- C. Ulfating xush – suhbating xush (m.).
- D. Ko‘zdan ko‘zing toysa, so‘zdan ko‘ngling toyar (m.).

**9. Qaysi qatorda bog‘langan qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Moling sara bo‘lguncha, bozoring sara bo‘lsin (m.).
- B. Qaysi ishda el qatnashsa, u ish o‘lmas, tirikdir.
- C. Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar (m.).
- D. Bog‘im bor-u, gulzorimda gulim yo‘q (Qo‘shiqdan).

**10. Qaysi qatorda bog‘langan qo‘shma gapga misol berilmagan?**

- A. Hamma uxlar va faqat tunni Mening o‘zim qarshi olurman (H.O.).

- B. O‘rtog‘imning na daftari bor, na kitobi bor.
- C. G‘ayrat o‘zi bitta so‘z-u, mazmuni keng olamdan.
- D. Katta arava qaerdan yursa, kichik arava ham o‘sha yerdan yuradi (m.).

**11. Qaysi qatorda biriktiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Yil kitob bo‘lsa, har kun undan bir varaqdir (m.).
- B. Kuzning sovug‘i keldi, biroq yog‘ini kelmadi (G‘.G‘ulom).
- C. Bu uyning na eshigi bor, na poli bor.
- D. Eshik unsiz ochildi-da, qizaloq ko‘zini ishqalab chiqdi (O‘.Hoshimov).

**12. Qaysi qatorda zidlov munosabatli bog‘langan qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Qush uchib ketdi, lekin tovushi anchagacha eshitilib turdi (A.Qah.).
- B. Baxt degani shodlik bo‘lsa, shodligimsan, azizim.
- C. Sen borki, shu tuproq qadri qimmatda (Shuhrat).
- D. Shu payt mashina to‘xtadi, Abdullaning xayoli buzildi.

**13. Qaysi qatorda qiyoslov munosabatli bog‘langan qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Kampirning barmoqlari tolga va chap oyog‘i uvusha boshlagan edi.
- B. Kamtar bo‘lish yaxshi, biroq sovuqqon bo‘lish yaramaydi.
- C. Vatanimizning kelajagi porloq hamda xalqimiz baxtiyordir.
- D. O‘qituvchi bamisoli bog‘bon va u yoshlik gulshanining rahnamosi.

**14. Qaysi qatorda ayiruv munosabatli bog‘langan qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Shu orada O'lmasoy kasal bo'lib qoldi-yu, ko'chish masalasi to'xtatildi (A.Qah.)
- B. Qiziqchi o'z haziliga o'zi kulsa, hazilning qadri ketadi.
- C. Yig'ilishda goh direktor gapirar, goh vakil gapirar edi (g.).
- D. Ota yetimlarga kulib boqardi, lekin soqoliga yoshi oqardi (H.G'ulom).

**15. Qaysi qatorda inkor munosabatli bog'langan qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. Ariqdan mayin ohang bilan suv oqar va shamol esar edi (O.).
- B. Birdan darvoza taraqlab ochildi-yu, hovlini faytun arava bosib ketdi (A.Qah.).
- C. Atrofida na bir yulduz, na bulut bor... (O'.Hoshimov).
- D. Ashulani bir Akram aytsa, bir uni Rustam davom ettirardi (g.).

**16. Qaysi qatorda ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. G'ayrat o'zi bitta so'z-u, mazmuni keng olamdan.
- B. Yer to'ymaguncha, el to'ymas (m.).
- C. Arpa ekkan arpa o'rar, bug'doy ekkan bug'doy o'rar (m.).
- D. Bodom po'sti bilan ko'rkam, odam – do'sti bilan (m.).

**17. Qaysi qatorda «ergash gap+bosh gap» tartibidagi qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. Shu narsa ma'lumki, haqiqat egiladi, lekin sinmaydi .
- B. Maqsadim shuki, siz mening o'rinbosarim bo'lasiz.
- C. To'g'ri aytmay so'zingni, qutultirma o'zingni (m.).
- D. Ter to'kib sochsang urug', yer seni qo'ymas quruq (m.).

**18. Qaysi qatorda «bosh gap+ergash gap» tartibidagi qo'shma gapga misol keltirilgan?**

- A. Ishlagan yerni yashnatar, ishlamagan qaqshatavr (m.).
- B. Harakating erta bo'lsa, kuzda erta o'rarsan (m.).
- C. Shuni bilingki, til hayot ko'zgusidir (g.).

D. Tesha urmasa, yog‘och yo‘nilmaydi (m.).

**19. Qaysi qatorda «bosh gap+ergash gap» tartibidagi ega ergash gapli qo‘shma gapga misol berilgan?**

A. Shunisi ham borki, u achchiq va tahqir so‘zlarga chidadi (Kalila va Dimna).

B. U halollikka nechog‘lik intildiki, hammaning havasi keldi.

C. Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, olim bo‘lsang, takror qil (m.).

D. Dushmaning sichqoncha bo‘lsa ham, kuching arsloncha bo‘lsin (m.).

**20. Qaysi qatorda «bosh gap+ergash gap» tartibidagi ega ergash gapli qo‘shma gapga misol berilgan?**

A. Tuqqan yerdan oyoq uzilsa ham, ko‘ngil uzilmas (m.).

B. Gapining mazmunidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, uyining oldidagi bog‘ sotilarkan (g.).

C. Yozilgan asarlar shu qadar ko‘pki, odam o‘qib ulgurolmaydi.

D. Shunday bir yo‘lni topaylikki, ular bizni toshbo‘ron qilishmasin.

**21. Qaysi qatorda kesim ergash gapli qo‘shma gapga misol berilgan?**

A. Kim boshqalarni kamsitsa, o‘zi hech qachon buyuk bo‘lolmaydi.

B. Bolalik shundayki, u yana qaytib kelmaydi.

C. Ishimiz kimyolashib, dori ko‘payib ketdi (P.Qodirov).

D. Havo shu qadar issiq ediki, ertalab o‘rilgan o‘t kechgacha qurib qoldi.

**22. Qaysi qatorda kesim ergash gapli qo‘shma gapga misol berilmagan?**

A. Pok muhabbatning fazilati shuki, u insonga hayotiylik baxsh etadi (H.).



B. Ruh qanday bo'lsa, farishta ham shunday bo'ladi (Dehl.).

C. Shunday odamlar borki, ular kelajagiga mas'uliyatsiz qaraydilar.

D. Voqea shuki, men shahrimdan tijorat bilan chiqqanman (S.Abdulla).

**23. Qaysi qatorda to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

A. Shu narsa muhimki, adabiyot ma'naviyat manbaidir.

B. Ishq shunday qudratli ekanki, qizning ohiga yerlar titrabdi.

C. Kimki hech kimni sevmasa, uni ham hech kim sevmaydi.

D. Dunyo tor bo'lsa ham, ona bag'ri keng.

**24. Qaysi qatorda «bosh gap+ergash gap» tartibidagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

A. Hayotda shunday tasodiflar bo'ladiki, undan faqat tadbirkorlikkina xalos etishi mumkin.

B. Har kim yaxshi bilishi kerakki, xalqsiz birorta ham ish bitmaydi.

C. O'quv yili tugab mana, yozgi ta'til keldi yana.

D. Ayol borki, hayot bor.

**25. Qaysi qatorda «ergash gap+bosh gap» tartibidagi to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

A. Qaerda yaxshilik bo'lsa, u yerda yomonlik bo'lmaydi (m.).

B. Kimki xohish bildirmasa, sen unga mehmon bo'lma.

C. Suv o'tni o'chirganday, kamtarlik ham g'ururni bezab turadi.

D. El-yurting bo'lmasa, oy-kuning bo'lmasin (m.).

**26. Qaysi qatorda aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

A. Ma'raka mardniki, to'y xalqniki (m.).

B. Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni (m.).

- C. Suv bor joyda, hayot bor (m.).
- D. Sevgi shunday dard erurki, unga tengdir shoh, gado (E.V.)

**27. Qaysi qatorda «ergash gap+bosh gap» tartibida tuzilgan aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap berilgan?**

- A. Kimki hayot sabog'ini olmasa, u chin baxtga erisholmaydi.
- B. Kimki ravshan fikrlay olsa, unga hayot kulib boqadi.
- C. Baxillar birlashsa, jahonga o't ketadi (H.).
- D. Kimning irodasi mustahkam bo'lsa, uning hayotdagi muvaffaqiyati ko'p bo'ladi.

**28. Qaysi qatorda «bosh gap+ergash gap» tartibida tuzilgan aniqlovchi ergash gapli qo'shma shapga misol berilgan?**

- A. Navoiy shunday shaxski, u o'zbek xalqi uchun benazir shuhrat keltirdi.
- B. Bizlarda mol-dunyo shunchalarki, uning hisobiga hech kim yetolmaydi.
- C. Ishq shunday qudratli ekanki, qizning ohiga yer titrabdi.
- D. Bog'dagi daraxtlar chunonam meva beribdiki, ular hech qaerga sig'mabdi.

**29. Qaysi qatorda ravish ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. Vaqting ketdi – naqding ketdi (m.).
- B. Mehnatdan kelsa boylik, turmushing ham chiroylik (m.).
- C. Ko'zlari olaygancha, jangchi tuproqqa belanib yotardi (O.Yoqubov).
- D. Qish g'amini yoz yesang, qishda g'aming oz bo'lar (m.).

**30. Qaysi qatorda ravish ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

- A. Akram ishdan, tomirlari bo'shashib, qaytdi.
- B. U kecha yer to'lg'anib, Yer ergashdi orqangdan.

- C. Gramni qadrlamasang, tonnang bo‘lmaydi (m.).
- D. Osmon musaffo bo‘lib, tinchlik bo‘lsin jahonda.

**31. Qaysi qatorda o‘xshatish ergash gapli qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Yoz keldi – kuz keldi (m.).
- B. Hamma bir kishiday shodlikka to‘lgan, misoli baxt qushin tutib olgandik.
- C. Ilon goh-goh chaqsa, yomon odam doim chaqadi (m.).
- D. Ko‘z bo‘yamachi tulki bo‘ladi, xalq ichida kulki bo‘ladi (m.).

**32. Qaysi qatorda payt ergash gapli qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Haqiqiy muhabbat kamdan-kam uchragani kabi, haqiqiy do‘stlik ham kamdan-kam uchraydi.
- B. Arslon bo‘kirsa, otning oyoqlari chalishadi (m.).
- C. Nilufar uyg‘ondi shekilli, karovatchasining g‘ichirlagani eshitildi (O‘.H.).
- D. Bog‘, qo‘rg‘onlar orqada qolgach, Oqsoy bo‘yiga chiqib keldik.

**33. Qaysi qatorda payt ergash gapli qo‘shma gapga misol berilmagan?**

- A. Lola ishdan qaytdi-yu, onasi mehmonlikka jo‘nadi.
- B. U, to xotini kiyinib bo‘lguncha, allaqayoqdan yetib kelibdi (S.Ayniy).
- C. Yomg‘ir yoqqan chog‘da, bolalar o‘yinni to‘xtatishdi.
- D. Quyosh ko‘kda jilmaysa, bo‘y cho‘zar giyoh-maysa.

**34. Qaysi qatorda maqsad ergash gapli qo‘shma gapga misol berilgan?**

- A. Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l.
- B. Ko‘ngil ketiga tushma, ko‘ngil har ishga boshlar (m.).
- C. Odamlar yashasin deb, tinchlikka imzo chekdim (G‘.G‘).

D. Bog'ing bo'lsa, uzgin gulingdan... (m.).

**35. Qaysi qatorda maqsad ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

A. O'zbek imorati bo'lsin deb baland, keldi Rossiyaning qarag'aylari (H.G'ulom).

B. Singlim kelsa ovqatlanar deb, unga taom tayyorlab qo'ydik.

C. Bir qop oltining bo'lgandan, bir tanob yering bo'lsin (m.).

D. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga (H.O.).

**36. Qaysi qatorda sabab ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

A. Hamal kirdi – amal kirdi (m.).

B. Tirnog'i bo'lmasa, yo'lbars ham ojiz (m.).

C. Qatorda norining bo'lsa, yuking yerda qolmaydi (m.).

D. Ishimiz kimyolashib, dori ko'payib ketgan (P.Qod.).

**37. Qaysi qatorda sabab ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

A. Nomusni hech narsaga fido qilish mumkin emas, chunki nomus jondan ham qimmatlidir.

B. Tilak faqat yerda qolmasin uchun, insonga zabardast bilak berilgan (E.Vohidov).

C. Qish qattiq kelgani sabab, ko'chalarda odam ancha siyrak uchrardi.

D. Tunda shamol kuchaygan shekilli, daraxt barglari ko'p to'kilgan.

**38. Qaysi qatorda shart ergash gapli qo'shma gap berilgan?**

A. Gul barglari uchishadi, tushmayin deb qo'lingga (H.O.).

B. Intizom buzildimi, ishda unum bo'lmaydi.

C. Ish bitgach, maslahatchi ko'payadi (m.).

D. Ko'cha chiroqlari o'chib, bolalar uy-uyiga tarqaldi.

**39. Qaysi qatorda shart ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

- A. Uyimiz qurilganda, men ancha yosh bo'lganman.
- B. Ixlosmand ko'paysa, eshon qutiradi (m.).
- C. Shu sochlardan dor yasalsa, mayliga.
- D. Ona qalbi oyoqqa tursa, o'g'lim, sira bo'lmaydi urush (Zulfiya).

**40. Qaysi qatorda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. Molni cho'pon tashlasa ham, mol egasi tashlamaydi (m.).
- B. Chiroyli ayol gavhar bo'lsa, aqlli ayol xazinadir (m.).
- C. Hayot borki, chiroq yonadi.
- D. Vatanning tinch – sen tinch (m.).

**41. Qaysi qatorda to'siqsiz ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

- A. Kun choshgohdan oshibdi hamki, ko'chaga hech kim chiqmabdi.
- B. Tuqqan yerdan oyoq uzilsa ham, ko'ngil uzilmaydi (m.).
- C. Sovuq tushmay, qish kelmas (m.).
- D. Ota qanchalik hay-haylashiga qaramay, bola mashina ruliga o'tirdi.

**42. Qaysi qatorda natija ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. O'q mo'ljalga shunday tekkan ediki, tajribali ovchi Sodiq hayron qoldi (Shuhrat).
- B. Gap qanchalik uzun bo'lmasin, bari bir, uchi topiladi (m.).
- C. Ular ishingizga ko'maklashmoqchi ekan, siz xursand bo'lishingiz kerak.
- D. Qarorlar bajarilar ekan, hamma narsa mo'l-ko'l bo'lib ketadi.

**43. Qaysi qatorda natija ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

- A. U chunonam aksa urdiki, uy derazalari titrab ketdi.
- B. Sobir shunday xo'rsindiki, qiz ixtiyorsiz ravishda kulib yubordi (O.).
- C. So'ray-so'ray, bilib olar, o'ylay-o'ylay keyin qolr (m.).
- D. Buzrukxo'ja jahl bilan aravani shunday mushtladiki, nazaridan mushtidan olov chiqib ketgandek bo'ldi.

**44. Qaysi qatorda ergash gapli qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. Usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar (m.).
- B. Oltin o'tda bilinadi, odam – mehnatda (m.).
- C. Yo do'sting serob bo'lsin, yo otang mirob bo'lsin (m.).
- D. U halollikka shu chog'liq intildiki, hammaning havasi keldi.

**45. Qaysi qatorda ergash gapli qo'shma gapga misol berilmagan?**

- A. Ko'pchilik qayda bo'lsa, to'qchilik shunda (m.).
- B. Chambil obod bo'lsin deb, kelayotir Avazxonday zo'ravon.
- C. Baland tog'da qor bo'lar, mard yigitda or bo'lar (m.).
- D. Ko'pchilik tikilsa, tog'ham qulaydi (m.).

**46. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gapga misol berilgan?**

- A. Aql – Hasan, odob – Husan (m.).
- B. Yomonning kasofati o'zidan bir chaqirim ilgari yuradi (m.).
- C. Kamtar bo'lish yaxshi, lekin sovuqqon bo'lish yaramaydi (m.).
- D. Yaxshi qand yedirsas, yomon pand yediradi (m.).

**47. Qaysi qatorda bog'langan qo'shma gapga misol berilmagan?**

- A. Qush uchib ketdi-yu, tovushi anchagacha eshitilib turdi (O'.H.).
- B. Eshik unsiz ochildi-da, qizaloq ko'zini ishqalab ichkaridan chiqdi (O'.H.).

C. Chin soʻz – mu'tabar, yaxshi soʻz – muxtasar (m.).

D. Maydonda goh shovqin tinar, goh gʻulgʻula falakka yetguday boʻlardi (O.).

**48. Qaysi qatorda bogʻlovchisiz qoʻshma gapga misol berilgan?**

A. Muomala yaxshi boʻlsa, tuya ham choʻkadi (m.).

B. Bugun dam yomgʻir yogʻardi, dam qor tashlardi.

C. Toʻpolon bir oz tindi, lekin hech kim javob qaytarmadi (A.Qax.)

D. Yaxshida gina boʻlmas, yomondan gina ketmas (m.).

**49. Qaysi qatorda bogʻlovchisiz qoʻshma gapga misol berilmagan?**

A. Yomondan dogʻ qolar, yaxshidan bogʻ qolar (m.).

B. Suvning oqishiga, xalqning xohishiga boq (m.).

C. Ikkovga birov yetolmas, otliqqa yayov yetolmas (m.).

D. Koʻngil oʻyga toʻymaydi, quloq – soʻzga (m.).

**50. Qaysi qatorda murakkab qoʻshma gapga misol berilgan?**

A. Madaniyatli inson odamlarga ruhiy madad baxsh etadi va bundan oʻzi ham bir dunyo orom oladi.

B. Ish qolsa – mehnat, osh qolsa – davlat (m.).

C. Oqil kishi soʻziga bino qoʻyar, nodon kishi oʻziga bino qoʻyar (m.).

D. Bir qarashda doʻstim (toʻgʻrirogʻi, endi sobiq doʻstim) haqlidek tuyulardi (Oʻ.H.).

**51. Qaysi qatorda murakkab qoʻshma gapga misol berilmagan?**

A. Ota-ona – xazina, aka-uka – tayanch, doʻst esa ularning har ikkisidir (m.).

B. Mard oʻlsa, nomi qolar, nomard oʻlsa, nimasi qolar (m.).

C. Yomgʻir yogʻdi – moy yogʻdi, qor yogdi – non yogʻdi (m.).

D. Bobomning tol ekkani – oʻziga nom ekkani (m.).

**52. Tojik tili qaysi tillar oilasiga mansubligi nechanchi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Xom-som tillar oilasiga.
- B. Dravid tillari oilasiga.
- C. Afrika tillari oilasiga.
- D. Hind-Yevropa tillari oilasiga.

**53. Tojik tili Hind-Yevropa tillar oilasining qaysi guruhiga kirishi nechanchi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Hind tillari guruhiga.
- B. Eron tillari guruhiga.
- C. Grek tillari guruhiga.
- D. German tillari guruhiga.

**54. Rus tili tillar oilasining qaysi biriga mansubligi nechanchi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Dravid tillari oilasiga.
- B. Paleosiyo tillari oilasiga.
- C. Kavkaz tillari oilasiga.
- D. Hind-Yevropa tillari oilasiga.

**55. Rus tili Hind-Yevropa tillar oilasining qaysi guruhiga mansubligi nechanchi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Eron tillari guruhiga.
- B. Roman tillari guruhiga.
- C. German tillari guruhiga.
- D. Slavyan tillari guruhiga.

**56. O‘zbek tili tillar oilasining qay biriga mansubligi nechanchi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Mo‘g‘ul tillari oilasiga.
- B. Ugor-fin tillari oilasiga.
- C. Tungus-manjur tillari oilasiga.



D. Turkiy tillar oilasiga.

**57. O‘zbek tili turkiy tillar oilasining qaysi guruhiga mansubligi nechanchi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Bulg‘or tillari guruhiga.
- B. Qipchoq tillari guruhiga.
- C. O‘g‘iz tillari guruhiga.
- D. O‘zbek va uyg‘ur tillari guruhiga.

**58. Uslubiyat (stilistika)ning nimani o‘rganishi qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Fonetika, grafika.
- B. Orfografiya, orfoepiya.
- C. Punktuatsiya, grammatika.
- D. Nutqning vazifaviy uslublarini.

**59. Nutqning vazifaviy uslublari qaysi qatorda to‘g‘ri va to‘liq aytilgan?**

- A. Badiiy uslub, rasmiy uslub.
- B. Publitsistik uslub, individual uslub, gazeta uslubi.
- C. Xalq og‘zaki ijodi uslubi, idoraviy uslub.
- D. So‘zlashuv uslubi, ilmiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub, publitsistik uslub, badiiy uslub.

**60. «Podsho dedi sen juda jahon kezgan odamsan» jumlasida o‘zga (ko‘chirma) gapning o‘rni qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Muallif gapining o‘rtasida kelgan.
- B. Muallif gapidan oldin kelgan.
- C. Muallif gapidan keyin kelgan.
- D. Muallif gapining har ikki tomonida kelgan.

**61. «Juda soz dedi podsho yonidagilarga qarab» jumlasida o‘zga gapning o‘rni qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Muallif gapidan keyin kelgan.
- B Jumla o‘zga gapli qurilma emas.
- C. Muallif gapining o‘rtasida kelgan.
- D. Muallif gapidan oldin kelgan.

**62. «Podsho vaziriga mehmonlarni yaxshi kuzating dedi» jumlasida o‘zga gapning o‘rni qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Muallif gapidan oldin kelgan.
- B. Muallif gapidan keyin kelgan.
- C. Muallif gapining o‘rtasida kelgan.
- D. Muallif gapining har ikki tomonida kelgan.

## **VII. PUNKTUATSIYA**

**1. Qaysi qatorda punktuatsiyaning nimani o'rgaishi to'g'ri aytilgan?**

- A. Tilning so'z birikmalari tizimini.
- B. Gaplar va ularning tuzilishini.
- C. So'z va atamalarning to'g'ri yozilishini.
- D. Tinish belgilari va ularning ishlatilish o'rinlarini.

**2. Tinish belgilarining miqdori qaysi qatorda to'g'ri aytilgan?**

- A. Beshta.
- B. Yettita.
- C. To'qqizta.
- D. O'nta.

**3. Qaysi qatorda tinish belgilarining nomi va tartibi to'liq berilgan?**

- A. Nuqta, tire, qavs, ikki nuqta, chiziqcha, qavs, qo'shtirnoq.
- B. So'roq belgisi, tire, ko'p nuqta, qo'shtirnoq, abzats, nuqta.
- C. Undov belgisi, chiziqcha, abzats, vergul, tire, ko'p nuqta, qavs, nuqta.
- D. Nuqta, vergul, so'roq belgisi, undov belgisi, tire, nuqtali vergul, ko'p nuqta, qavs, qo'shtirnoq.

**4. Qaysi qatorda nuqtaning vazifasi to'g'ri aytilgan?**

- A. Gapning uyushiq bo'laklarini ajratish.
- B. Qo'shma gap qismlarini ajratish.
- C. Undalmani gapning asosiy qismidan ajratish.

D. Gapning nisbiy tugallanganligini bildirish.

**5. Qaysi qatorda tirening vazifasi to‘g‘ri aytilgan?**

A. Gaplarning tugalligini bildiradi.

B. Gap boshlanishini bildiradi.

C. Gaplarning bir bosh bo‘lakligi va to‘liqsizligini bildiradi.

D. Gapning ichi va boshida qo‘yilib, turli xil vazifalarni bajaradi.

**6. «Yer – guvoh, osmon – guvoh» gapida tirening vazifasi qaysi qatorda aytilgan?**

A. Gap mazmuniga ta’kid ma’nosini qo‘shgan.

B. Gapn ohangini o‘zgartirgan.

C. Ega ma’nosini mantiqan kuchaytirgan.

D. Ot kesimni egadan ajratgan.

**7. «Haqiqat – bu o‘lik tan, kir suv bilan yuvilgan» gapida vergul qanday vazifa bajargan?**

A. Uyushiq bo‘laklarni ajratgan.

B. Gapga qo‘shimcha ma’no yuklagan.

C. Ajratilgan bo‘lakni bildirgan.

D. Biror-bir vazifa bajarmagan.

**8. «Kel, uka, tinchlikmi?» gapida vergulning vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

A. Ifodalanmagan egani bildirgan.

B. Kesimlarni ajratgan.

C. Gapga so‘roq mazmunini yuklagan.

D. Gap o‘rtasida kelgan undalmani ajratgan.

**9. Shuning uchun el aytar: «Chigirtka bu maynamas» gapida qo‘sh tirnoqning vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri aytilgan?**

A. Qo‘shma gap qismlarini ajratgan.

B. Qo‘shma gap qismlari ma’nosini kuchaytirish uchun.

- C. Muallif gapidan keyin keluvchi o'zga (ko'chirma) gapni ajratrgan.
- D. Uslubiy vazifa bajargan.

**10. «Yangi joy...» misolida ko'p nuqtaning vazifasi qaysi qatorda to'g'ri aytilgan?**

- A. Atov gapni bildirgan.
- B. So'z birikmasini bildirgan.
- C. Gapning tugallanmaganligini bildirgan.
- D. Biror-bir vazifa bajarmagan.

**11. Ko'p nuqtaning qaysi o'rinda qo'yilishi qaysi qatorda to'g'ri aytilgan?**

- A. So'roq gaplardan keyin.
- B. Undov (his-hayajon) gaplardan keyin.
- C. So'z birikmalaridan keyin.
- D. Mazmunan va shaklan tugamagan gaplardan keyin.

**12. Qaysi qatorda punktuatsiya til fanining qaysi sohasiga hamrohlik qilishi to'g'ri aytilgan?**

- A. Leksikologiyaga.
- B. Fonetikaga.
- C. Orfografiyaga.
- D. Sintaksisga.

**13. Qaysi qatorda gapning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari to'g'ri berilgan?**

- A. Vergul, tire, qavs.
- B. Qo'shtirnoq, nuqtali vergul.
- C. Ko'p nuqta, chiziqcha.
- D. Nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi.

**14. Qaysi qatorda gap o‘rtasiga qo‘yiladigan tinish belgilari to‘g‘ri sanalgan?**

- A. Nuqta, ko‘p nuqta.
- B. Undov belgisi, so‘roq belgisi.
- C. Qo‘shirnoq, qavs, chiziqcha.
- D. Vergul, tire, nuqtali vergul, ikki nuqta.

**15. Qaysi qatorda bir paytda ikki vazifa bajaradigan tinish belgilari to‘g‘ri berilgan?**

- A. Ikki nuqta, qavs, qo‘shirnoq, tire, chiziqcha.
- B. Ko‘p nuqta, nuqtali vergul, tire.
- C. Qavs, qo‘shirnoq, undov belgisi.
- D. Nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi.

**16. Qaysi qatorda tirening qo‘yilish o‘rinlari to‘g‘ri va to‘liq aytilgan?**

- A. Matn tarkibidagi har bir gap oldidan quyiladi.
- B. Matn tarkibidagi har bir gap oxiridan qo‘yiladi.
- C. Uyushiq va ajratilgan bo‘laklar oldi va oxiridan qo‘yiladi.
- D. Dialog va ko‘chirma gaplarda; ot kesim kesimli gaplarda quyiladi.

**17. Qaysi qatorda ikki nuqtaning qo‘yilish o‘rinlari to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Qo‘shma gap qismlariaro qo‘yiladi.
- B. Murakkab qo‘shma gaplar qismlariaro qo‘yiladi.
- C. Uyushgan gap bo‘laklari orvsiga qo‘yiladi.
- D. Uyushiq bo‘laklarni umumlashiruvchi so‘zlardan, fikrni to‘ldiruvchi va izohlanish xarakteridagi qismlardan keyin qo‘yiladi.

**18. Qaysi qatorda ko‘p nuqtaning qo‘yilish o‘rinlari to‘g‘ri aytilgan?**

- A. Topishmoq tavsifidagi matnlarda.

B. Kirish va kiritmali gaplarda.

C. Soʻz tizmasi va soʻz birikmalarini farqlashda, abzatlarning mustaqil gaplari orasida.

D. Ifodalanmagan va aytilishi odob doirasiga zid soʻzlar oʻrniga qoʻyiladi.

**19. Qaysi qatorda qavsning qoʻyilish oʻrinlari toʻgʻri aytilgan?**

A. Gapning uyushiq va ajratilgan boʻlaklariga.

B. Izohlanish maʼnosidagi soʻz birikmalari va soʻz tizmalari.

C. Murakkab qoʻshma gap qismlari.

D. Asar nomi va mualliflari, ayrim kiritmalar qavs ichiga olinadi.

**20. Qaysi qatorda qoʻshtirnoqning qoʻyilish oʻrinlari toʻgʻri aytilgan?**

A. Koʻchirma gaplar, asar, muassasa va joy nomlari, kinoya manosini bildirgan soʻzlar qoʻshtirnoq ichida beriladi.

B. Murakkab matn tarkibidai gaplar.

C. Kishi nom va nasablari, ularga qoʻyilgan laqablar.

D. Uyushiq boʻlaklarning bir mavzu ostidagi guruhlar qoʻshtirnoq ichida beriladi.

**21. Qaysi qatorda nuqtali vergulning qoʻyilish oʻrinlari toʻgʻri aytilgan?**

A. Abzatlardan oldin qoʻyiladi.

B. Oʻzga gapli qurilmalarda koʻchirma va muallif gaplari orasiga qoʻyiladi.

C. Bir mavzu doirasidagi uyushiq boʻlaklararo, bir umumiy maʼnoda tutashuvchi qismlararo qoʻyiladi.

D. Kirish, kiritma va ajratilgan gap boʻlaklariaro qoʻyiladi.

**22. Qaysi qatordagi gapda zarur boʻlgan tinish belgi qoʻyilmagan?**

A. Dunyoda tinchlikni istamagan millat ham, xalq ham yoʻq.

B. Mardlik bilan nomardlikning orasi – bir qadam (m.).

C. Olis yo‘l otni og‘ir yo‘l mardni sinaydi (m.).

D. Tilingni emas, o‘zingni botir qil (m.).

**23. Qaysi qatordagi gapda noo‘rin ishlatilgan tinish belgisi mavjud?**

A. Axloqiy – fazilatlar odamning niyatida aks etadi.

B. Bola edim, oftob bor edi, Oydan yorug‘ edi osmonlar.

C. Adabiy tilni puxta bilish har bir kishi uchun suv va havoday zarur.

D. O‘rigimiz gullaganda, Ey dadajon, kelmadingiz.

**24. Qaysi qatordagi gapga vergul qo‘yilsa, to‘g‘ri bo‘ladi?**

A. Aql – yoshdan odob – boshdan (m.)

B. Beodob yigit – jilovsiz ot (m.).

C. Odamni ochlik emas, or o‘ldirar (m.).

D. Husn husn emas, odob – husn (m.).

**25. Qaysi qatordagi gapda tire noto‘g‘ri qo‘yilgan?**

A. Gap – so‘zda emas, uni ayta bilishda.

B. Uy farzand bilan obod, dala-odam bilan (m.).

C. Bilim – barcha kulfatlarga qalqondir.

D. Aqlingga aql qo‘sh, jahlingga – sabr .

**26. Qaysi qatordagi gapga tire qo‘yilishi kerak?**

A. Tildan ham bol tomar, ham – zahar (m.).

B. Oz so‘z soz so‘z (m.).

C. Johillik – jon azobi (m.).

D. Birni birov beradi, ko‘pni – mehnat (m.).



## **TO‘G‘RI JAVOBLAR KO‘RSATKICHI**

### **I. Kirish**

1-D, 2-D, 3-D, 4-C, 5-D, 6-B, 7-D, 8-B, 9-D, 10-C, 11-D, 12-A, 13-D.

### **II. Fonetika. Grafika. Orfografiya.**

1-D, 2-C, 3-A, 4-A, 5-C, 6-B, 7-B, 8-A, 9-A, 10-A, 11-A, 12-B, 13-D, 14-C, 15-C, 16-A, 17-C, 18-A, 19-C, 20-C, 21-C, 22-A, 23-A, 24-C, 25-B, 26-A, 27-A, 28-C, 29-C, 30-C, 31-B, 32-C, 33-B, 34-A, 35-B, 36-C, 37-B, 38-C, 39-D, 40-C, 41-C, 42-D, 43-B, 44-A, 45-A, 46-C, 47-D, 48-C, 49-A, 50-A, 51-A, 52-C, 53-B, 54-A.

### **III. Leksikologiya**

1-B, 2-B, 3-C, 4-C, 5-B, 6-C, 7-C, 8-D, 9-D, 10-D, 11-C, 12-D, 13-D, 14-B, 15-A, 16-A, 17-D, 18-A, 19-B, 20-A, 21-A, 22-D, 23-C, 24-D, 25-A, 26-B, 27-D, 28-A, 29-C, 30-C, 31-D, 32-C, 33-B, 34-C, 35-D.

### **IV. Morfemika. So‘z yasalishi**

1-D, 2-D, 3-D, 4-C, 5-D, 6-B, 7-C, 8-C, 9-D, 10-D, 11-C, 12-A, 13-C, 14-C, 15-A, 16-B, 17-A, 18-D, 19-A, 20-B, 21-A, 22-C, 23-B.

### **V. Morfologiya**

#### **1. Mustaqil so‘z turkumlari**

1-D, 2-D, 3-D, 4-D, 5-D, 6-D, 7-D, 8-A, 9-D, 10-C, 11-B, 12-C, 13-D, 14-D, 15-B, 16-D, 17-A, 18-D, 19-A, 20-A, 21-A, 22-A, 23-A, 24-A, 25-A, 26-B, 27-A, 28-D, 29-D, 30-D, 31-D, 32-D, 33-D, 34-C, 35-A, 36-D, 37-A, 38-B, 39-C, 40-C, 41-D, 42-D, 43-C, 44-A, 45-C, 46-C, 47-B, 48-A, 49-D, 50-A, 51-B, 52-C, 53-A, 54-D, 55-A, 56-D, 57-A, 58-B, 59-B, 60-A, 61-D, 62-C, 63-C, 64-B, 65-C, 66-D, 67-B, 68-C, 69-B, 70-C, 71-D, 72-C, 73-A, 74-C, 75-D, 76-D, 77-B, 78-A, 79-D, 80-A, 81-B, 82-A, 83-C, 84-D, 85-B, 86-A, 87-D, 88-C, 89-A, 90-B, 91-C, 92-C, 93-A, 94-D, 95-B, 96-D, 97-C, 98-C, 99-D, 100-C, 101-B, 102-A, 103-A, 104-A, 105-C, 106-A, 107-C, 108-B, 109-A, 110-C, 111-D, 112-B, 113-A, 114-D, 115-A, 116-C, 117-D, 118-C, 119-A, 120-A, 121-D, 122-A, 123-C, 124-D, 125-D, 126-A, 127-D, 128-A, 129-D, 130-A, 131-A, 132-A, 133-C, 134-A, 135-A, 136-C, 137-A, 138-B, 139-D, 140-B, 141-D, 142-A, 143-A, 144-C, 145-A.

## **2. Yordamchi soʻz turkumlari.**

### **Undov. Modal soʻzlar. Taqlid soʻzlar**

1-A, 2-B, 3-C, 4-C, 5-D, 6-C, 7-D, 8-B, 9-B, 10-B, 11-D, 12-B, 13-A, 14-B, 15-D, 16-C, 17-A, 18-D, 19-A, 20-A, 21-D, 22-C, 23-C, 24-A, 25-A, 26-A, 27-B, 28-B.

## **VI. Sintaksis**

### **1. Sintaktik aloqalar. Soʻz tizmasi. Soʻz birikmasi**

1-B, 2-D, 3-C, 4-C, 5-C, 6-C, 7-B, 8-A, 9-D, 10-C, 11-C, 12-B, 13-C, 14-D, 15-B, 16-B, 17-D, 18-B, 19-B, 20-A, 21-C, 22-B, 23-B, 24-B, 25-D, 26-A, 27-C, 28-D, 29-C, 30-A, 31-A, 32-D, 33-B, 34-D, 35-D.

### **2. Sodda gaplar sintaksisi**

1-D, 2-C, 3-A, 4-A, 5-A, 6-D, 7-A, 8-B, 9-B, 10-A, 11-A, 12-C, 13-C, 14-A, 15-A, 16-C, 17-C, 18-B, 19-A, 20-A, 21-B, 22-C, 23-A, 24-

A, 25-D, 26-B, 27-A, 28-D, 29-C, 30-B, 31-A, 32-D, 33-A, 34-C, 35-D, 36-C, 37-D, 38-C, 39-B, 40-C, 41-C, 42-D, 43-C, 44-A, 45-A, 46-D, 47-A, 48-A, 49-C, 50-A, 51-A, 52-D, 53-B, 54-B, 55-B, 56-A, 57-B, 58-D, 59-B, 60-B, 61-A, 62-C, 63-D, 64-A, 65-A, 66-A, 67-B, 68-B, 69-B, 70-A, 71-C, 72-C, 73-A, 74-D, 75-C, 76-D, 77-A, 78-D, 79-A.

### **3. Qo'shma gaplar sintaksisi.**

1-C, 2-C, 3-C, 4-D, 5-C, 6-C, 7-C, 8-C, 9-D, 10-D, 11-D, 12-A, 13-B, 14-C, 15-C, 16-B, 17-D, 18-C, 19-A, 20-B, 21-B, 22-C, 23-B, 24-C, 25-B, 26-D, 27-D, 28-A, 29-C, 30-C, 31-B, 32-D, 33-A, 34-C, 35-A, 36-D, 37-B, 38-B, 39-A, 40-A, 41-C, 42-A, 43-C, 44-D, 45-C, 46-C, 47-C, 48-D, 49-B, 50-B, 51-D, 52-D, 53-B, 54-D, 55-D, 56-D, 57-D, 58-D, 59-D, 60-C, 61-D, 62-C.

### **VII. Punktuatsiya.**

1-D, 2-D, 3-D, 4-D, 5-D, 6-D, 7-C, 8-D, 9-C, 10-C, 11-D, 12-D, 13-D, 14-D, 15-D, 16-D, 17-D, 18-D, 19-D, 20-A, 21-C, 22-C, 23-A, 24-A, 25-C, 26-B.

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Berdialiyev A., Sheronov B. O‘zbek tili sintaksisi. Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – Xujand, 2011.
2. Berdialiyev A., Sheronov B., Eshmurodov E. O‘zbek tili sintaksisi. Sxema va tablitsalar. Univrsitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlari o‘zbek tili va adabiyoti bakalavri talabalari uchun qo‘llanma. – Xujand, 2011.
3. Berdialiyev A. O‘zbek tili sintaksisi. Tahlil namunalari va mashqlar majmuasi. – Xujand, 2013.
4. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., Mannopova D. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIY, 2020. – 192 b.
5. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2017. – 208 b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2017. – 160 b.
7. Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. – T.: Cho‘lpon, 2019. – 144 b.
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2019. – 128 b.
9. Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 112 b.

10. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. Oʻrta taʼlim muassasalarining 11-sinfi va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalari oʻquvchilari uchun darslik. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.

11. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S., Mannopova D. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 10 – sinfi uchun darslik (2-qism). – T.: “Oʻqituvchi”, 2020. – 96 b.

12. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. Ona tili. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11 – sinfi uchun darslik (2-qism). – T.: “Oʻqituvchi”, 2020. – 96 b.

13. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – T.: Fan, 2013. – 144 b.

14. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. (akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 1-bosqich talabalari uchun darslik). – T.: Ilm ziyo, 2011. – 160 b.

15. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. (akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 2-bosqich talabalari uchun darslik). – T.: Ilm ziyo, 2010. – 280 b.

16. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. (akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 3-bosqich talabalari uchun darslik). – T.: Ilm ziyo, 2010. – 160 b.

### **Shartli qisqartmalar**

1. A.Qod. – Abdulla Qodiriy
2. A.Qah. – Abdulla Qahhor
3. A.N. – Alisher Navoiy
4. P.Q. – Primqul Qodirov
5. O. – Oybek
6. Oyd. – Oydin Sobirova
7. H.O. – Hamid Olimjon
8. Z. – Zulfiya (Isroilova)
9. J.P. – Jamshid Primov
10. Z. B. – Zulfiya Boboyeva
11. S.Z. – Saida Zunnunova
12. X.T. – Xudoyberdi To‘xtaboyev
13. M. T. – Mirzo Tursunzoda
14. O‘.H. – O‘tkir Hoshimov
15. E.V. – Erkin Vohidov
16. m. – maqol
17. g. – gazeta

## MUNDARIJA

|                                         |     |
|-----------------------------------------|-----|
| Soʻz boshi.....                         | 3   |
| I. Kirish.....                          | 5   |
| II. Fonetika. Grafika. Orfografiya..... | 9   |
| III. Leksikologiya.....                 | 20  |
| IV. Morfemika. Soʻz yasalishi.....      | 27  |
| V. Morfologiya.....                     | 32  |
| 1. Mustaqil soʻz turkumlari.....        | 32  |
| 2. Yordamchi soʻz turkumlari.....       | 62  |
| VI. Sintaksis.....                      | 68  |
| 1. Sintaktik aloqalar.....              | 68  |
| 2. Sodda gap sintaksisi.....            | 76  |
| 3. Qoʻshma gap sintaksisi.....          | 92  |
| VII. Punktatsiya.....                   | 107 |
| Toʻgʻri javoblar koʻrsatkichi.....      | 113 |
| Tavsiya etilgan adabiyotlar.....        | 116 |
| Shartli qisqartmalar.....               | 118 |

**IXTIYOR ERMATOV**

**ONA TILI**

**TEST-SINOV MASHQLARI  
MAJMUASI**

Nashriyot litsenziyasi AI № 223, 16.11.2012.  
Bosishga 08.06.2021 da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^{1/16}$ .  
«Times» garniturası. Ofset usulida bosildi.  
Shartli b.t. 6.9. Nashr taboq 6.7. Adadi 100 nusxa.  
60-raqamli buyurtma.

«TURON-MATBAA» MCHJ da chop etildi.  
Toshkent sh., Olmazor tumani, Talabalar ko'chasi, 2-uy.